

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

MAKTABGACHA TA'LIM METODIKASI KAFEDRASI

SHARIPOVA BAXTIGUL

**BOG'CHA YOSHIDAGI BOLALAR TA'LIMIDA EKOLOGIK  
TA'LIM – TARBIYANING UZVIYLIGINI TAKOMILLASHTIRISH**

**5141700 - Maktabgacha ta'lim va sport, tarbiyaviy ish yo'nalishi  
bo'yicha bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Ilmiy rahbar:**

**Nasimov Sadriddin**

Malakaviy bitiruv ishi maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasida bajarildi. kafedraning 2013-yil 31-maydagi majlisida muhokama qilindi va himoyasiga tavsiya etildi. (bayonnoma № 10)

**Kafedra mudiri:**

**dots. Doniyev B.B.**

Malakaviy bitiruv ishi YaDAK ning 2013-yil \_\_\_\_\_ iyundagi \_\_\_\_\_ yig'ilishida himoya qilindi va "\_\_\_\_\_" foisga baholandi. (bayonnoma № \_9\_)

**YaDAK raisi:** \_\_\_\_\_

**YaDAK a'zolari:** \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

**SAMARQAND – 2013**

**PEDAGOGIKA FAKULTETI**

**MAKTABGACHA TA'LIM VA BOLALAR SPORTI YO'NALISHI**

**MAKTABGACHA TA'LIM METODIKASI KAFEDRASI**

**« BOG'CHA YOSHIDAGI BOLALAR TA'LIMIDA EKOLOGIK  
TA'LIM – TARBIYANING UZVIYLIGINI TAKOMILLASHTIRISH »**

**MAVZUSIDAGI:**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Bajaruvchi:**

**Sharipova Baxtigul**

**Ilmiy rahbar:**

**Nasimov Sadriddin**

**SAMARQAND – 2013**

**Samarqand davlat universiteti Pedagogika fakulteti “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasining 2013-yil 31-mayda bo’lib o’tgan  
№ 10-bayonnomasidan**

**KO’CHIRMA**

2013-yil 31-may

**Qatnashdilar:** Kafedra a’zolarining barchasi

**Majlis raisi:** dots. B.Doniyev

**Kotib:** o’qit. S.Nasimov

**KUN TARTIBI:**

***“Pedagogika” kafedrasida 2012-2013 o’quv yilida bajarilgan bitiruv malakaviy ishlarining dastlabki himoyasi va ularni himoyaga tavsiya etish haqida.***

**Eshitildi:** 2012-2013 o’quv yilida kunduzgi bo’lim talabalarining bajarilgan bitiruv malakaviy ishlari bilan majlis qatnashchilarini kafedra mudiri dots. B.Doniyev tanishtirdi va qo’yidagilarni bayon qildi:

2012-2013 o’quv yilida 5141700-Maktabgacha ta’lim va sport-tarbiyaviy ish yo’nalishining kunduzgi bo’lim bitiruvchi kurs talabasi Sharipova Baxtigulning «Bog’cha yoshidagi bolalar ta’limigada ekologik ta’lim – tarbiyaning uzviyligini takomillashtirish» mavzusida bitiruv malakaviy ishi yozdi. Ilmiy rahbari S. Nasimov. Talaba mavzu bo’yicha yozgan ishini kafedraga taqdim etgan. Ish yuzasidan ilmiy rahbarning ijobiy mulohazasi ham bor. Shuning uchun so’zni Sharipova Baxtigulga bersak. U bitiruv malakaviy ishining mazmuni bilan tanishtirsa.

Sharipova Baxtigul bitiruv malakaviy ishining mazmun-mohiyati haqida gapirib, mavzuning dolzarbligi, o’rganilish darajasi, ilmiy va amaliy ahamiyati, amalga oshirilgan ishlari haqida gapirdi.

Shundan so’ng talabaga dots. H.Yusupov, o’qituvchi M. Nigmatovalar savollar berishdi. **Sharipova Baxtigul** savollarga aniq va qisqa javob berdi.

**Sharipova Baxtigul** chiqishi, savol-javoblaridan so’ng mazkur bitiruv malakaviy ishini YaDAKda himoyaga tavsiya etish haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

**Ushbu masala yuzasidan kafedra yig’ilishi**

**QAROR QILADI:**

1. 5141700-Maktabgacha ta’lim va sport-tarbiyaviy ish yo’nalishining kunduzgi bo’lim bitiruvchi kurs talabasi **Sharipova Baxtigul** « Bog’cha yoshidagi bolalar ta’limida ekologik ta’lim – tarbiyaning uzviyligini takomillashtirish» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi talabga javob beradi deb hisoblansin va u YaDAKga himoyaga tavsiya etilsin.
2. **Sharipova Baxtigul**ning ushbu bitiruv malakaviy ishiga 1 Samarqand pedagogika kolleji o’quv ishlari bo’yicha direktor o’rinbasari Sh. Bektemirov belgilansin.
3. Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasining ushbu qarorini tasdiqlash fakultet dekanatidan so’ralsin.

**Yig’ilish raisi:**

**dots. B.Doniyev**

**Kotib:**

**o’qit. S.Nasimov**

## **MUNDARIJA**

### **KIRISH**

#### **I BOB. MAKTABGACHA TA'LIMDA EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYA UZVIYLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI**

1.1. Maktabgacha ta'limda ekologik ta'lim-tarbiya uzviyligini takomillashtirish – pedagogik muammo sifatida.

1.2. Maktabgacha ta'limda uzviy ekologik ta'limni shakllantirishning asosiy bosqichlari.

#### **II. BOB. MAKTABGACHA TA'LIMDA EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYA UZVIYLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING SHAKIL VA VOSITALARI.**

2.1. Maktabgacha ta'limda ekologik ta'lim-tarbiya uzviyligini takomillashtirish shakllari.

2.2. Maktabgacha ta'limda ekologik ta'lim-tarbiya uzviyligini takomillashtirish vositalari.

2.3. Tadbir va sayrlar orqali bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish.

### **Xulosa**

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**



## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Hozirgi sharoitda ekologiya to'g'risida ilmiy umumlashmalar chiqarish uning nazariy asoslarini ishlab chiqish va chuqur o'rganish dolzarb masala hisoblanadi. Binobarin, har qanday muammoni yechish nazariy asoslarini o'rganishdan boshlanadi. Muammoning nazariy asoslarini o'rganish deganda, avvalo shu sohadagi mavjud tushunchalar va qonuniyatlarni chuqur bilib olish nazarda tutiladi.

Demak, muayyan ilm obyektiv birlikni o'rganishni, uning asosiy maqsadi va vazifalari nimadan iboratligini hamda shu sohadagi qonuniyatlar jamiyat manfaatlariga qanday xizmat qilishini yaxshi bilgan bo'lishi kerak. Bugunga kelib, atrof-muhitga zamonaviy fan-texnika revolyusiyasining ta'siri oqibatida ekologiya tushunchasining mazmuni juda o'zgarib ketdi. Ekologiya nafaqat jonli tabiat resurslarini, balki har qanday narsalarni: butun Yer sayyorasi, uning ayrim bo'laklari, shu jumladan insonni ham, ularni o'rab turgan tashqi muhitni, shu narsalarning tarixiy rivojiga ko'rsatgan ijobiy va salbiy ta'sirini o'rganmoqda. Ekologiya amaliyotining asosiy vazifasi yer yuzidagi geografik unsurlarning evolyusion rivojini o'z qonuniyatlaridan kelib chiqib, ekologiya fani belgilab bergan yo'nalish va tizimda saqlab turishidir.

Hozirgi kunda, maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarga berilayotgan ekologik ta'lim-tarbiya o'z oldiga qo'ygan vazifalar quyidagilardir: ekologik ta'lim-tarbiya, bilimlarni to'plab, ularni saralaydi, sinaydi va natijalarini ilmiy tahlil qilib, amaliyotchi ekologlarga qonun-qoida va tavsianomalar ishlab chiqadi. So'ngra ular ekologlarga, keng ommaga yetkazadi, hammani ekologik yangiliklardan xabardor qilib boriladi. Inson va tabiat o'rtasidagi aloqadorlik qonuniyatlarni aniqlash va ulardan kelib chiqqan holda tabiat muhitining inson hayotiga ta'sir chegarasini tahlil qilish ekolog olimlar zimmasiga katta vazifa yuklaydi. Ular bu yo'nalishda amaliyotda zarur bo'lgan ko'pgina ilmiy ishlar qilib, inson tomonidan tabiatning buzilishini cheklovchi hujjatlar va qoidalar yaratib qo'yganlar. Xalqimiz shu qonun-qoidalarni yaxshilab o'rganib olib, ularga rioya qilishi zarur.

Birinchi navbatda, maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyachi pedagoglar ekologiyadan ma'lum bir bilimga, ekologik madaniyatga, ko'nikmaga ega bo'lishlari kerak, keyin esa, ular bog'cha, maktab, lisey, kasb-hunar kollejlari tarbiyalanuvchi, ta'lim oluvchi bolalarga ekologik ta'lim-tarbiya, bilim, ko'nikma, saviyalarini singdiradi, izchil bilimlarni, o'tilgan mavzularni mustahkamlaydi va ularni shakllantiradi. Bizning yoshlar xuddi kuch-qudratning chinakam egasi bo'lar ekanlar, o'z kelajagini o'zlar yaratish zarur hisoblanadi.

Hozirgi kunda ekologik ta'lim-tarbiya jarayonida yosh avlodni ayniqsa, maktabgacha ta'lim-tarbiyada ekologik ongni shakllantirish bo'yicha ma'lumot berish, yosh bolalarda ona tabiatga nisbatan mas'uliyatlilik, javobgarlik hissini tarkib toptirish lozim. Tabiat va jamiyat rivojida ekologik tarbiya, ekologik ong, ekologik odob katta o'rin tutadi. O'z navbatida, inson tabiatni muhofaza qilishning zarurligini anglaydi, lekin kundalik faoliyatda bunga amal qilmasligining, loqaydligining sababi ekologik bilimlarning e'tiqotiga, axloqiy qoidaga aylanmaganligiga borib taqaladi. Shuning uchun faqatgina pand-nasihat bilan yosh avlodni tabiat muhofazasi kurashchilari, hozirgi zamon ekologik ziddiyat talablariga javob beradigan shaxs qilib tarbiyalash bugungi kunning *dolzarb* masalasi hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'limida ekologik ta'lim tarbiyaning uzviyligini shakllantirishga oid qator ishlar amalga oshirilgan bo'lsada, ammo bu jarayonlar bugungi kun talablari asosida takomillashtirilmog'i lozim. Shu jihatdan bitiruv malakaviy ishimiz mavzusini **“Bog'cha yoshidagi bolalar ta'limida ekologik ta'lim tarbiyaning uzviyligini takomillashtirish”** deb nomlashimizga asos bo'ldi.

**Tadqiqotning maqsadi:** Bog'cha yoshidagi bolalar ta'limida ekologik ta'lim tarbiyaning uzviyligini takomillashtirish.

**Tadqiqotning vazifalari:**

- Maktabgacha ta'limda ekologik ta'lim-tarbiya uzviyligini takomillashtirishni – pedagogik jihatda o'rganish.

- Maktabgacha ta'limda uzviy ekologik ta'limni shakllantirishning asosiy bosqichlari yoritish.
- Maktabgacha ta'limda ekologik ta'lim-tarbiya uzviylikini takomillashtirish shakllarining mazmun mohiyatini o'rganish.
- Maktabgacha ta'limda ekologik ta'lim-tarbiya uzviylikini takomillashtirish vositalari.
- tadbir va sayrlar orqli maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni rivojlantirish.

**Tadqiqotning obekti:** Bog'cha yoshidagi bolalar ta'limida ekologik ta'lim tarbiyaning uzviylikini shakllantirish jarayoni.

**Tadqiqotning predmeti:** Bog'cha yoshidagi bolalar ta'limida ekologik ta'lim – tarbiyaning uzviylikini shakllantirishning mazmuni, shakl, metod va vositalari.

**Tadqiqot metodlari:** mavzuga oid adabiyotlarni nazariy-qiyosiy tahlil qilish, pedagogik kuzatish, ko'rgazmali, amaly (o'yin, mehnat, oddiy tajribalar), og'zaki (tarbiyachining hikoyasi, badiiy asarlarni o'qish, suhbat) metodlari.

Bitiruv malakaviy ishning mazmuni. Bitiruv malakaviy ishimiz: kirish, ikki bob, besh paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

## **I BOB. MAKTABGACHA TA'LIMDA EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYA UZVIYLIKINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.**

### **1.1. Maktabgacha ta'limda ekologik ta'lim-tarbiya uzviyligini takomillashtirish – pedagogik muammo sifatida.**

Yosh boladagi fikrlash oiladagina emas, bog'chada tarbiyachilar faoliyatiga ham bog'liqdir. Shuning uchun ularga go'zal tarzda ekologik ta'lim-tarbiya bermok, yaxshi xulqlarni o'rgatmoq va ko'rkam odatlarni tushuntirmok lozimdir.

Tarbiya ilk yosh bolani oltin etmoqlik va aksincha tuproq-xazon qilmoqlik ham mumkin. Bularning har ikkisiga dastavval, oilada ota-onalari, keyinchalik maktabgacha ta'lim muassasalari, ya'ni bog'cha tarbiyachilari ekologik ta'lim-tarbiya maskanlari sabab bo'ladilar. Maktabgacha tarbiyada albatta, bog'cha bolalarida tabiatni muhofaza qilish, uni asrash, unga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lish uchun sog'lom fikr, yaxshi axloq, ilm-ma'rifatga qiziquvchi inson bo'lish talab etiladi.

Yoshlikdan boshlangan ekologik ta'lim-tarbiya, u hozirgi kunda biz uchun hayot-mamot masalasidir.

Xalqimizning tarbiya ostonadan boshlanadi, degan ibratli hikmati bor. Bunday tarbiyaning eng muhim uslublaridan shaxsiy namuna, oila ibratidir.

Oilada, bog'chada bolalarda tabiatga bo'lgan oqilona munosabatni shakllantirish va ularda insoniylik fazilatlarini o'stirish – ekologik ta'lim-tarbiyaning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Ma'lumki, tabiat, adabiyot va san'atni sevgan bola hyech qachon yomonlikka qo'l urmaydi.

Atrof muhit (tabiat)ning ifloslanishi, uning boyliklaridan foydalanishda ro'y berayotgan hodisalar ko'pincha xo'jalik va moddiy ishlab chikarish ehtiyojlarining o'sishi emas, balki kishilarning ekologik qonunlarni yaxshi bilmasliklari, ekologik jihatdan savodsizligi, ekologik madaniyatlari nihoyatda pastligi sabab bo'lmoqda. Shuning uchun ham ekologik vaziyat keskinlashgan hozirgi paytda keng xalq ommasi orasida tabiatni qo'riqlash, uning boyliklaridan tejab-tergab, oqilona foydalanishga yo'naltirilgan ekologik ta'lim-tarbiya ishlariga katta e'tibor berilmoqda.

Maktabgacha ta'lim muassasasi mujassam ekologik bilimlar va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishning asosiy bosqichi hisoblanadi. Insonning tabiat bilan

munosabati uning boyliklaridan foydalanish, muhofaza qilish, kelajak avlodga sof holda qoldirishga doir keyingi faoliyatlarining samaradorligi aynan shu bosqichni qay darajada tashkil etilishi bilan uzviy bog'liq. Bunga sabab har bir insonning hayoti, albatta, maktab orqali o'tadi. O'quvchilarda ekologik ong, madaniyat, bilim, e'tiqod, iymon, uquv-malakasini shakllantirish va rivojlantirish zaruriyati va dolzarbligi shundaki: birinchidan, umumta'lim maktablari jamiyatning hamma bolalarini qamrab oladi va inson hayotida umumiy ijtimoiy ong shakllanadigan muhim bo'g'in hisoblanadi;

ikkinchidan, ekologiyaning turli fanlarni tabiat muhofazasi manfaatlari doirasida mujassamlashtirish vazifasi maktab o'quv predmetlarining o'zaro munosabatlarini mustahkamlab, o'quvchilarning asosiy fanlar bo'yicha bilimlarini chuqurlashtirish va kengaytirish vositasi hisoblanadi;

uchinchidan, maktab ta'lim-tarbiyasining ijtimoiy mohiyati va mazmuni o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga, shu jumladan tabiatni muhofaza qilish malakalarini hayotga tatbiq etishga yaratiladi. Ma'lum-ki, o'quvchilarning sinfdan sinfga o'tishi bilan ekologiyaga oid bilimlari va amaliy ko'nikmalari rivojlanib boradi. O'zlashtirilgan ekologik tushunchalarning mazmuni chukurlashadi va kengayadi.

Ekologik muammolar ilg'or o'qituvchilarning boy tajribalari bilan boyitilishi lozim. Shu bilan birga ekologik ta'lim-tarbiyaning ahamiyatini judayam mutlaqlashtirmasdan, bu yo'nalishlarning ekologik mazmuni tarbiyaning barcha sohalari bilan bog'lanishi, zaruriyatlari, istiqbollari ustida maxsus ilmiy tadqiqot ishlirini olib borish lozim bo'ladi. Bu holatni chuqur his etgan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi o'quvchi yoshlarimiz orasida ekologik ta'lim-tarbiyani yaxshilashni yo'lga qo'yishni o'zining asosiy vazifalaridan biri deb hisobladi va uzluksiz ekologik ta'lim-tarbiya konsepsiyasini yaratishni bosh vazifa qilib qo'ydi. Shu munosabat bilan «Uzluksiz ekologik ta'lim konsepsiyasi» yaratildi. Konsepsiyaning asosiy g'oyasi: oila, bog'cha, maktab, o'rta maxsus va kasb-hunar bilim yurtlari, oliy o'quv yurtlari talabalariga ekologik ta'lim berishdan iborat. Konsepsiya 1993 yilda O'zR XTV, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,

Respublika tabiatni qo'riqlash Davlat qo'mitasining birlashgan hay'ati yig'ilishida bir ovozdan tasdiqlandi.

Konsepsiya g'oyalarini amalga oshirish maqsadida O'zR XTVning 1993 yil iyun oyidagi 198-sonli buyrug'iga asosan o'quvchilarning ekologik ilmiy-ta'lim tadqiqot laboratoriyasi tashkil qilindi. Laboratoriyaning maqsadi: o'quvchi, o'qituvchi, to'garak rahbarlari uchun ekologiyadan dastur, metodik tavsiya va qo'llanmalar yaratish, ilg'or tajribalarni o'rganish, umumlashtirish va yeyish, shuningdek turli mavzularda respublika ilmiy-amaliy anjumanlarini tashkil etish va ularni o'tkazishdan iborat.

Konsepsiyaga asosan keyingi 2-3 yil davomida «Ekologiyadan davlat ta'lim standarti» (1993), «Ekologiyadan dasturlar» (1995; 8 yo'nalishda), «Ekologiya, ekologik ta'lim» (1995), «Atrof muhit va inson» (1995), «Ekologiyani bilasizmi?» (1995) «Ekologiyadan test savollari» {1996) kabi metodik tavsiya va qo'llanmalar yaratildi.

Xalq ta'limi vazirligi o'quvchilarga ekologik ta'lim berishni yo'lga qo'yish bilan bir qatorda bu sohaga qiziqadigan iqtidorli bolalarni tanlab, ularni yoshlikdan boshlab ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishlariga alohida ahamiyat bermoqda. Shu munosabat bilan «Tabiat kecha, bugun, ertaga» nomli o'quvchilar konferensiyasi o'tkazilmoqda. Konferensiyaning birinchi yig'ilishi 1994 yilda Nukusda, ikkinchisi 1995 yilda Jizzax shahrida, uchinchisi esa 1996 yilda Toshkentda bo'lib o'tdi. Bunday yig'ilishlarni uzluksiz ravishda, har yili 26-30 iyul kunlari o'tkazishga qaror qilindi.

Respublikada ekologik ta'lim-tarbiyani yanada yaxshilash maqsadida 1995 yil 28 avgustda O'zR XTVning 178-sonli buyrug'i bilan «Respublika yoshlarining «BIOEKOSAN» o'quv-uslubiy majmuasi» tashkil etildi. Majmua viloyatlardagi ekologiya-tabiatshunoslar Markazlarining ish faoliyatlarini muvofiqlashtirib, ularni dasturlar, metodik tavsiya va qo'llanmalar bilan ta'minlash bilan birga Toshkent shahrida «bog'cha-maktab» majmuasini tashkil etib, bolalarga uzluksiz ekologik ta'lim berish muammosini hal etish yo'lida faoliyat ko'rsatadi.

Ekologik ta'lim-tarbiya to'g'risida ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan Sh.Avazov o'zining "Maktab tarbiyaviy ishlar tizimida ekologik tarbiyaning mazmuni" maqolasida quyidagi fikrlarni ilgari suradi:

«Inson va atrof-muhit» muammosining tarbiyaviy jihatini mavjudki, bu ekologik tarbiyaning predmetidir.

Ekologik tarbiyaning maqsadi rivojlanayotgan shaxsda ekologik ong va madaniyatni, ya'ni atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirishdan iborat.

Maktabgacha ta'limda yosh bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va yosh bolani atrofdagi-tarbiyalovchilar g'oyat katta ahamiyatga ega. Haqiqiy inson, bilimli pedagog-tarbiyachi insoniy axloqni, bilimni o'zida barqaror qilgan kishi yosh bolalarga yaxshi ta'sir ko'rsatadi, ularning yaxshi tarbiyalanishlari uchun yaxshi zamin hozirlaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida bola fikri, ongi, tafakkurini shakllantirishda, oila, ota-ona, bog'cha tarbiyachilari orasida doimo muloqotda bo'ladigan kishilarning ta'siri katta bo'lib, ulardan bolalar bilan bo'lgan munosabatda katta mas'uliyat talab qilinadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga tarbiyachilar, ayniqsa, sharqona urf-odatlar, udumlar to'g'risida ma'lumot berishlari lozimdir.

Sharq xalqlari, ayniqsa, o'zbeklar orasida sharm-hayo, or-nomus, ota-onaga hurmat-ehtirom azaldan insonlar ongiga singib ketgan tushunchalardir. Biz jamiyatni ulkan oila deb tushunamiz. Tabiiyki, o'z oilasiga sig'magan bola dunyoga ham sig'maydi, ya'ni o'z uyiga oilasiga ro'shnolikni ravo ko'rmagan odam, jamiyatga ham ro'shnolik ko'rsatmaydi.

Tabiiyki, bolalardagi barcha ijobiy fazilatlar o'z-o'zidan paydo bo'lmagan. Yosh bolalardagi ijobiy sifat va xislatlarni qaror toptirish uchun kurashish, vijdonan mehnat qilish kerak. Bolalar oldida oila, ota-ona vijdoni o'z bolalariga bergan ta'lim-tarbiyasi, tarbiyachi vijdoni esa, uning tarbiyalanuvchiga bergan bilimi bilan o'lchanadi. Shunga ko'ra, har bir oila, tarbiyachi o'zining aniq vazifasini bilishi lozim. Har bir oila tabiatning tarbiyaviy ahamiyatiga har qancha

ijobiy baho bersa ham ortiqcha bo'lmaydi. Tabiat bilan yaqin munosabatda bo'lish insonga ijobiy ta'sir qiladi, uni sofdilroq, muloyimroq qilib, ko'nglida eng yaxshi his-tuyg'ularni uyg'otadi. Bolalar tarbiyasida tabiatning roli ayniqsa katta. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tabiat bilan yilning turli fasllarida unda ro'y berib turadigan o'zgarishlar bilan tanishtirib boriladi.

Hosil qilingan bilimlar asosida tabiat hodisalarini aniq tushuna bilish, qiziquvchan bo'lish, jamiki tirik narsaga shavq-zavq bilan qarash singari fazilatlar shakllanib boradi. Tabiatga mehr qo'yish, uni ehtiyot qilish, e'zozlash, tirik jonivorlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish tabiatga qiziqish uyg'otibgina qolmay, balki bolalarda vatanparvarlik, mehnatsevarlik, tabiat boyliklarini ardoqlab, ko'paytirib borayotgan kattalarning mehnatiga hurmat bilan qarash singari xarakterning eng yaxshi xususiyatlarini shakllantirib borishga ham yo'l ochadi.

Bolalar bog'chasining xona o'simliklari va ba'zi hayvonlar parvarishlab boqiladigan tabiat burchagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishga, unga mehmuhabbat uyg'otishga yordam beradi.

Tabiat burchagida yashayotgan jonzotlarni bolalar har kuni ko'rib turishadi, bu – tarbiyachining ishini yengillashtiradi, uning rahbarligi ostida bolalar tirik mavjudotlarni muntazam kuzatib boradilar, ularni parvarish qiladilar. Ularni parvarish qilib borish jarayonida bolalar yerdagi o'simliklar va hayvonlar dunyosining nihoyatda turli-tumanligi to'g'risida, o'simliklar va hayvonlar qay tariqa o'sib, rivojlanib borishi, ularga qanday sharoitlar yaratib berish zarurligi to'g'risida tasavvur hosil qiladilar. Tarbiyachi bolalarni qiyosiy analiz, ya'ni tahlil qilishga hayvonlarni bir-biriga solishtirib ko'rib, ular orasidagi o'xshashliklar va farqlarni, o'simliklardagi umumiylik va tafovutlarni topishga o'rgatib boradi, hayvonlarning tashqi ko'rinishidagi, xatti-harakatidagi qiziq xususiyatlarni payqab, olishiga, bilishga yordam beradi. Xona o'simliklarini ko'zdan kechirish vaqtida gullari bilan barglarining chiroyligiga, guruhdagi o'simliklar va yaxshi qarab, parvarish qilib borilayotgan akvarium xonaga qanchalik ko'rku-yairoy berayotganiga bolalar diqqatini jalb etadi. Mana shularning hammasi bolalarda go'zallikni sezish hissini shakllantirib borishga yordam beradi.

O'simliklar va hayvonlarni muntazam ravishda parvarish qilib, ularga qarab borish jarayonida tarbiyachi bolalarda ma'lum mehnat ko'nikmalarini shakllantirib, ularni tirik burchakdagi hayvonlarga e'tibor bilan qarashga, tirik mavjudotlar to'g'risida g'amxo'rlik qilishga o'rgatib boradi va shu tariqa bolalarda tabiatga qiziqishni, natijaga erishish yo'lida sabir-matонатli bo'lish odatini mustahkamlaydi.

Ishni rejalashtirar ekan, tarbiyachi aniq shart-sharoitlarni: o'z guruhidagi bolalar, bilimlari va malakalarining darajasini, tevarak-atrofdagi tabiat xususiyatlarini hisobga olishi shart.

Ekologik ongning shakllantirishning asosiy bosqichlari va mohiyati, bog'cha bolalari bilan mashg'ulotlar o'tkazish jarayonida ekologik tarbiya ishlarini maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etish lozim. Bunda, eng avvalo, bolalarda tabiatga, atrof-muhitning turli obyektlariga nisbatan, zavodlar, fabrikalar, brigadalar, guruhlar tomonidan qabul qilingan qarorlarga, katta yoshdagi kishilar va o'rtoqlari fe'l-atvorini, o'zlarining xulqini tahlil etishga ekologik yondoshuvni shakllantirish borasida aniq tadbirlar belgilash lozim. Ekologik tarbiyaning muhim shakli bog'cha bolalarning ishlab chiqarish ta'limi tarbiyachi (guruh rahbarlari, Tarbiyachi, pedagog, yotoqxona tarbiyachisi) rahbarligidagi tabiatni muhofaza etish hududlarni obodonlashtirish, ko'chat-daraxtlar ekish va ularni nazorat qilish, qushlar va hayvonlar uchun uya va in qurish; buloq, ko'l va ariqlarni axlat va chiqindilardan tozalash; tuman hududiga yaqin joylashgan qishloq yoki shahar atrofidagi oromgohlarga otaliq qilish va boshqalar bo'yicha tashkil etilgan amaliy ishlaridir.

Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilari insonning tabiatdagi o'rnini, ona shahri yoki qishlog'i uchun tabiat muhofazasi borasidagi faoliyatning ahamiyatini yer va havo, ko'l, daryolarni toza saqlash masalalarini hal etishda faol hayotiy nuqtai nazarning dolzarb ekanini tushunib yetadilar. Aynan bolalarning tabiatni muhofaza etish borasida maqsadga yo'naltirilgan amaliy faoliyati individual, alohida ekologik ongning shakllanishida zaruriyat hisoblanadi. O'zbekistonda ekologik ta'lim-tarbiya masalalari "Bog'cha bolalari ta'lim-tarbiya

dasturi”ga ham kiritilgan. Bu dolzarb masalaning keyingi bosqichlari ekologik ta’lim maktablari, muassasalari hamda bevosita korxonalarda davom ettiriladi. Bolalarning maktabda tabiatshunoslik, biologiya, geografiya, fizika, kimyo va boshqa fanlardan olgan bilimlaridan kasb-hunar ta’limi muassasalaridagi ekologik ta’lim-tarbiya jarayonida keng foydalanish lozim.

Atrof-muhitni muhofaza etish uchun kurashish, so’zsiz, mustaqil respublikamizdagi har bir insonning fuqarolik burchiga aylanmog’i lozim. Shuni alohida ta’kidlab o’tish lozimki, yoshlarning ekologik ongini shakllantirishning muhim yo’nalishlaridan biri – ularda tabiatga bo’lgan axloqiy munosabatlarini tarbiyalashdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalash masalasini hal etish ularni tabiat bilan qulay o’zaro munosabatda bo’lish g’oyasini qabul qilish va uni amalga oshirish faoliyatiga tayyorlaydi. Ammo shuni ham yoddan chiqarmaslik lozimki, axloq o’z mazmunida bunday o’zaro ta’sir me’yorlarini bevosita aks ettirmaydi. Uning bevosita qo’llanish sohasi – bu jamiyatdan tashqarida emas, balki uning o’zidagi munosabatlardir. Shuning uchun ham, tarbiyachi yaxshilik qilish, achinish, hamdardlik va ojizlarga yordam berish hissi, ezgulik, axloqiy sifatlar insonning tabiatga bo’lgan munosabatlarida ham namoyon bo’lishini aniq tasavvur etishi va uni esa bolalarga asosli ravishda bayon qila bilishi kerak.

Shuning uchun ham bunga o’xshash tashqi “olijanob faoliyat” o’ylab amalga oshirilgan yuksak axloqiy xatti-harakatlarga bevosita zid kelishi mumkin. Ammo qiyin ahvolga tushib qolgan bechora qushlar va hayvonlar, yarador jonzotlarga yordam beruvchi bolalar va katta yoshdagi kishilarning xatti-harakatlarini tabiatga bilib-bilmay aralashish faoliyati bilan chalkashtirmaslik kerak. Ular jarohat organlarini davolab, so’ngra ularni qo’yib yuboradilar.

Tarbiyachi albatta maktabgacha yoshdagi bolalarga o’rgatadigan axloqiy me’yorlar va baholar haqidagi bilim ularning tabiat bilan o’zaro munosabatlarni shaklini tanlashda tayanch vazifasini o’taydi. Kelgusida bolalar bu bilimlarni mustaqil holda to’ldirishlari kerak. U ekologik mavzuda yozilgan adabiyotlar,

olgan qo'shimcha ma'lumotlar asosida u yoki bu aniq vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila bilishi lozim.

O'smirlar va qizlar o'zlarining tabiatga bo'lgan munosabati ularning axloqiy yetukligi va tarbiyalanganligini bildiruvchi sifat ekanini anglashlari zarur. Ijtimoiy tadqiqot natijalari aynan maktabgacha yoshdagi bolalar orasida mazkur yo'nalishdagi tarbiyaviy ishlarning alohida dolzarbligini ko'rsatadi. Ko'pgina hollarda ayrim yosh bolalar uy hayvonlariga shafqatsiz munosabatda bo'lishadi. Buni statistik tahlil va kuzatish natijalaridan ham bilsa bo'ladi. Bu esa bolalarni oila, maktab va boshqa ta'lim muassasalaridan axloqiy jihatdan tarbiyalashda yo'l qo'yilgan xatolar oqibatidir. Aslida ular jonzotlarga nisbatan shafqatsiz bo'lish ma'naviy nuqson va uning kelgusida og'ir oqibatlarga olib kelishidan xabar beruvchi tashvishli ishorat sifatida qaramoq kerak. Ba'zan maktab bolalari orasida ham bunday toifadagi bolalar uchrab turadi. Agar ular bu yerda ham zaruriy ekologik ta'lim-tarbiya olishmasa, u holda tabiatga ham, odamlarga ham, o'z-o'ziga ham ko'p zarar keltirishi mumkin.

Yosh bolaning tabiat bilan muloqoti unda axloqiy sifatlarni tarbiyalaydi. Bizga juda katta tarbiya tizimi yaratilgan unda bolalarning tabiat bilan muloqotiga, uning qonunlarini, qadriyat va go'zalligini bilishga alohida o'rin ajratilgan. Tabiat ezgulik manbai, uning go'zalligi insonning ma'naviy olamiga ta'sir ko'rsatadi. Ammo odam qalbi ham eng oliy insoniy go'zalliklar – ezgulik, haqiqat, mehr-muruvvat, hamdardlik, yovuzlikka murosasizlik va boshqa fazilatlar bilan bezalgan bo'lishi kerak.

Aslida bolalar har bir sohada kattalardan ibrat olishadi. Katta yoshdagi kishilarning ijobiy xatti-harakati va ibratli so'zlari, tabiatga bo'lgan amaliy oqilona munosabati bolalar uchun saboq bo'ladi. Shuning uchun tarbiyachilar bolalarga hayvonlarni boqish, ko'paytirish, dorivor o'tlar va o'simliklarni yig'ish, atrof-muhitni, ish-joyini taza tutish va boshqa masalalarda o'rnak bo'lishlari kerak.

Yoshlarning dunyoqarashi va ekologik madaniyati bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Bog'cha bolalari tabiatga bo'lgan munosabati ularning axloqiy yetukligi va qay darajada tarbiyalanganlik darajasini ko'rsatadi. Ekologik ong va ekologik

bilimlar bolalar dunyoqarashining tarkibiy qismi bo'lmog'i zarur. Zero, ekologik bilimlarsiz ekologik madaniyat ham shakllanmaydi.

Pedagogikada metodni katta yoshdagi kishi va bolaning ma'lum ta'lim-tarbiyaviy natija: bilimlarni egallash, malaka va ko'nikmalarni hosil qilish, qobiliyatlarni o'stirish, axloqiy sifatlar, xulq-atvorlarini shakllantirishga erishish uchun yo'llangan hamkorlikdagi faoliyatining usuli deb qarash qabul qilingan.

Bolalar bog'chasida bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida xilma-xil metodlar: ko'rgazmali (kuzatish, rasmlarni ko'rish, diafilm va kinofilmlarni namoyish qilish), amaly (o'yin metodi, mehnat, oddiy tajribalar), og'zaki (tarbiyachining hikoyasi, badiiy asarlarni o'qish, suhbat) metodlaridan foydalaniladi.

Ko'rgazmali usullar, kuzatishlar. Kuzatish atrof-olam predmetlari va hodisalarini maqsadga muvofiq, rejali idrok etishdir. Kuzatish – murakkab bilish faoliyati bo'lib, unda idrok, tafakkur va nutq ishtirok etadi, barqaror diqqat talab etiladi. Kuzatilayotgan hodisani tushuntirishda bolaning tajribasi, bilimi va malakalari muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Tabiatni bolalar bilan birgalikda kuzatishni tashkil etar ekan, tarbiyachi bir qator vazifalarni hal etadi; bolalarda tabiat haqidagi bilimlarni shakllantiradi, kuzatishni o'rgatadi, kuzatuvchilikni o'stiradi, estetik jihatdan tarbiyalaydi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishdagi bilish vazifalariga ko'ra tarbiyachi kuzatishning xilma-xil turlaridan foydalanadi.

Predmet va hodisalarning xususiyat hamda sifatleri haqidagi bilimni shakllantirish maqsadida tashkil etiladigan qisqa muddatli kuzatuvlar jarayonida bolalar qismlarning shakli, rangi, katta-kichikligi, tuzilishi, fazoviy joylashuvini, sathining xarakterini farqlashni, hayvonlar bilan tanishganda esa harakat xakteri, ular chiqaradigan tovushlarni ham o'rganadilar va hokazo.

O'simlik va hayvonlarning o'sishi hamda rivojlanishi, tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar haqidagi bilimlarning jamg'arilishi uchun kuzatishning ancha murakkabroq turi – uzoq muddatli kuzatishlardan foydalaniladi, bunda bolalarga obyektning kuzatilayotgan holatini ilgarigisi bilan qiyoslashga to'g'ri keladi.

Kuzatish predmetning ayrim belgisiga ko'ra uning holatini aniqlash (masalan, tuproqning rangiga ko'ra sug'orishning zarurligini, akvariumdagi baliqlarning xatti-harakatiga ko'ra suvni qisman almashtirish zarurligini aniqlash) yoki ayrim belgilarga ko'ra yaxlit manzarani tiklash (qordagi izga qarab kimsaning yayov yoki biror narsada o'tganligini, rangiga qarab mevaning pishgan yoki xomligini aniqlash) maqsadida ham tashkil etilishi mumkin. Kuzatishning bu turi bolalarda ba'zi bilimlar, hodisalarni analiz qilish, ayrim ma'lumotlarni qiyoslash, soddaroq xulosalar chiqarish ko'nikmalarining bo'lishini nazarda tutadi.

Kuzatuvning so'nggi ikki turidan ularning murakkabligi tufayli maktabgacha o'rta va katta yoshdagi bolalar bilan bo'ladigan ishda foydalaniladi. Bu kuzatishlar davomida bolalarning zehni va kuzatuvchanligi o'sadi, analiz qilish, qiyoslash, xulosalar chiqarish jarayoni takomillashadi. Kuzatishlar tarbiyachi tomonidan bolalarni o'simlik va hayvonlar bilan, ob-havo bilan, kattalarning tabiatdagi mehnati bilan tanishtirishda tashkil etiladi. Kuzatishlar mashg'ulot va ekskursiyalarda, sayrlarda, tabiat burchagida va shu kabi joylarda olib boriladi. Ba'zi hollarda tarbiyachi kuzatishga barcha bolalarni jalb qilsa, boshqa hollarda kuzatish kichik guruh yoki bitta bola bilan olib boriladi. Bu kuzatishning mazmuni hamda tarbiyachi o'z oldiga qo'ygan vazifalariga bog'liq bo'ladi.

Barcha holatlarda ham kuzatish bolalarning yuksak aqliy faolligida o'tishi, ularni fikr yuritishga, qo'yilgan masalalarga javob topishga undashi, ularning qiziquvchanligini o'stirishi, qiziqishini rivojlantirish va tabiatga avaylab munosabatda bo'lishni tarbiyalashi lozim.

Tarbiyachining kuzatishga tayyorlanishi. Tarbiyachining kuzatishni o'tkazishga tayyorlanishi obyektни tanlashdan boshlanadi. Kuzatish uchun tanlangan o'simlik yoki hayvon yaxshi holatda bo'lishi lozim. Agar kuzatish binoda (tabiat burchagida, mashg'ulotda) olib boriladigan bo'lsa, uni tashkil etish ustida o'ylab ko'rish lozim: obyekt yaxshi yoritilgan bo'lishi, yorug'likning yon tomondan tushgani ma'qul, shunday joylashtirilishi kerakki, unga yaqinlashish qulay bo'lsin. Bolalarni kuzatilayotgan predmetga yaqinroq joylashtiriladi, chunki

u hammaga yaxshi ko'rinib turishi, zarur bo'lsa kuzatish obyekti bilan harakat qila olish (ovqat berish, silash, o'ynash) mumkin bo'lishi lozim.

Agarda biror hayvon kuzatilayotgan bo'lsa, shunday sharoit yaratish lozimki, unda hayvon o'zini erkin va tabiiy tutsin. Masalan, quyinni kuzatishda uning bemalol harakat qilishi uchun maxsus joy quriladi, uning atrofidagi stulchalarga bolalar o'tirishadi. Parketli (yoki linolium qoplangan) pol ustiga latta tashlab qo'yish lozim, aks holda hayvon silliq pol ustidan yurganda sirg'anib ketishi mumkin.

Kuzatishni boshqarish. Kuzatishni boshlashda, ayniqsa u birinchi marta o'tkazilayotgan bo'lsa, bolalar oldiga savol yoki topshiriq qo'yishga shoshilmaslik lozim. Bolalar kuzatilayotgan obyektni mustaqil 1-2 daqiqa tomosha qilishlari tabiiy paydo bo'lgan qiziqishlarni qondirishlari kuzatilayotgan narsa haqida birinchi taassurotni hosil qilishlari lozim.

Tarbiyachi kuzatishlarni boshqarish jarayonida xilma-xil usullardan, savollar, topshiriqlar, predmetni sinab ko'rish (uni ushlab ko'rish, silash va shu kabilar)dan, qiyoslash, o'yin va mehnat harakatlaridan foydalaniladi.

Kuzatish ma'lum izchillikda olib borilishi lozim. Tarbiyachi bolalarning hayvonlarni kuzatishlarini boshqarar ekan eng avvalo ularning e'tiborini hayvonning xatti-harakatiga qaratadi: Nima qilyapti? Qanday yuryapti? Nima yeyapti? Qanday yeyapti? Faqat qandaydir harakatiga bog'liq tarzdagina hayvon tashqi qiyofasining belgilari ko'rib chiqiladi: tanasi nima bilan qoplangan? Oyoqlari qanday uzunmi yoki qisqami? Ko'zlari qanday (shakli, rangi)?

O'simliklarni tomosha qilish, uning eng yorqin, ko'zga tashlanadigan belgisini belgilash va ajratib ko'rsatishdan boshlanadi – bu o'simlk guli yoki uning yorqin rangdor barglari ekanligi, ba'zan esa odatdan tashqari poyasi (masalan, kaktuslarda) bo'lishi mumkin. Ana shundan so'ng o'simlik tashqi tuzilishining asosiy xususiyatlari aniqlandi: kattaligi, shakli, poyasi (yoki tanasi), barglari, gullari va shu kabilar tartib bilan ko'rib chiqiladi. Bunday izchillik maktabgacha yoshdagi bolalarning diqqati hali yetarlicha barqaror emasligi ko'p jihatdan beixtiyorligi tufayli zarurdir. Biroq, kuzatish oxirida kuzatish jarayonida paydo

bo'lgan tasavvurlarni tartibga solish lozim. Tarbiyachi topshiriq berishning turli usullaridan foydalanib (gapirib ber-chi ... ni nimasidan bilib olasiz? ... dan nimasi bilan farqlanadi? va hokazo), bolalarni kuzatilayotgan narsa haqida: katta-kichikligi, predmetning shakli, qoplami, rangi (uning asosiy qismlari), sirtki qismlari va ularning xususiyatlari, hayvonni kuzatishda esa uning namoyon bo'lishini (ko'rinishini) izchil gapirishga odatlantiradi.

Kuzatishning bunday tartibda olib borilishi, ayniqsa, bolalarga yangi bo'lgan tabiat obyekti bilan tanishganda zarur.

Barcha hollarda ham tarbiyachi kuzatishni tashkil etar ekan, kuzatishning bir konkret vazifasidan ikkinchisiga faktlardan aloqalarga tasavvurlar to'plashdan ularni qiyoslashga, so'ngra xilosalar chiqarishga o'tishda izchillikka rioya qilish lozim. Shunday qilishganda bolaning mantiqiy tafakkuri o'sadi. Har bir kuzatish yosh bolalarni tabiatdagi ekologik hodisa, jarayon bilan tanishtirishning kichik, konkret vazifasini hal qiladi. Shuning uchun tarbiyachi kuzatishni o'tkazar ekan ayni shu vaqtdagi kuzatishning ilgari o'tkazilganlari bilan aloqasini aniqlash, keyin o'tkaziladigan ishlarni nazarda tutishi lozim.

Tarbiyachi yosh bolalarga tabiatdagi ekologik ta'lim-tarbiya, hodisa va jarayonlarni uzoq muddatli kuzatishni tashkil etar ekan, uni oldindan bir qator eaizotik kuzatishlar – bo'laklarga taqsimlaydi. Bu kuzatishlar, aytaylik, o'simlikning rivojlanishidagi o'zgarishlar aniq ko'rinadigan vaqtda o'tkaziladi. Tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalarga o'simlikni tomosha qilishni, belgilarni qayd qilishni, uning hozirgi holatini ilgari kuzatilgani bilan qiyoslashni, o'zgarishlardan dalolat beruvchi yangi beglilarini ajratib ko'rsatishni tavsiya etadi. Yakuniy kuzatishda bolalar kuzatilayotgan o'simlik rivojlanishining butun tasvirini tiklashi lozim. Bunga kuzatishlar kundalik daftari (u turlicha: rasm, gerbariylar; maktabgacha katta yoshdagi bolalarda esa o'zgarishlarning sxematik o'zgarishi ham bo'lishi mumkin) yordam beradi.

## **1.2. Maktabgacha ta'limda uzviy ekologik ta'limni shakllantirishning asosiy bosqichlari.**

Ekologik madaniyat umumiy dunyoqarashning tarkibiy qismi bo'lib, keng va tor ma'nolarda tushuniladi. Keng ma'noda ekologik madaniyat insoniyatning, ayniqsa yosh bolalar o'rtasida tabiatga uning tabiat resurslariga, atrof-muhitni muhofaza qilishga, ularni qadrlashga qaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar majmuasidir. Tor ma'noda esa, insonning amaliy va nazariy faoliyati, tabiatni, uning butun boyliklarini, musaffo havosini, tiniq va zilol suvlarini hamda tuproqni toza, ozoda saqlashga qaratilgan bo'lishi kerak.

Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarda ekologik ta'lim-tarbiya, tarbiyachi tomonidan, ularga quyidagi usullardan foydalanish bilan amalga oshiriladi.

Tarbiyachi tarqatma materiallardan foydalanib kuzatishni boshqaradi. Bu kuzatishlar o'rta guruhlardan boshlab o'tkaziladi. Bunday kuzatishni tashkil etish bir obyektни kuzatishdan ko'ra ancha murakkabroqdir. Bu o'rinda tarbiyachidan o'z diqqat e'tiborini taqsimlay bilishi, barcha bolalar harakatini uyushtira olishi talab qilinadi, bolalar esa tarbiyachining barcha ko'rsatmalariga aniq rioya qilishlari, boshqalarni tinglashlarini o'zlarining kuzatishlari bilan taqqoslashlari hamda qiyoslashlari kerak bo'ladi. Kuzatishlar tashkil etishning bu usuli katta rivojlantiruvchi ahamiyatga egadir. Barcha bolalar turli xil tadqiqotchilik harakatlaridan foydalanishda mashqlanish, o'quv ko'nikmalarini takomillashtirish imkoniga ega bo'ladilar, bolalarda ancha aniqroq tasavvurlar shakllanadi.

Tarqatma material sifatida o'simliklar hamda ularning qismlari: bargi, mevasi va urug'i, shoxchalari, sabzavot va mevalaridan foydalanish mumkin.

Kuzatishda qatnashuvchi har bir bola material yig'malarini qo'lga oladi (xuddi shunday yig'malar tarbiyachida ham bo'ladi).

Kuzatish davomida tarbiyachi bolalarga savollar beradi, narsalarni tekshirishni tashkil etadi. Olingan tasavvurlar qiyoslanadi. Tarbiyachi bolalarni xulosalar chiqarishga olib keladi. Kuzatish jarayonida tarqatma materialdan foydalanish barcha bolalarning yuqori faolligini ta'minlaydi.

*Kichik guruhlar.* Dastlabki kuzatishlar oz miqdordagi bolalar bilan o'tkaziladi. Tarbiyachining asosiy vazifasi – bolada kuzatishning elementar malakalarini tarkib toptirishdir: diqqatni kuzatilayotgan narsaga ozmi yoki ko'pmi to'plash, qo'yilgan savollarga javob berish, aniq belgilarni (2-3 ta) ajratib ko'rsatish. Bolalarni aniq harakatlanuvchi narsalarga jalb qiladi, shuning uchun bu yoshdagi bolalar bilan dastlab jonivorlarni kuzatish mumkin. Ularning namoyon bo'lishi – harakati, oziqlanishi, chiqaradigan tovushlari – kichkina bolalarda beihitoyoriy diqqatni uyg'otadi. Avvaliga bolalar tarbiyachining savollarini eshitmaganday, tushunmaganday bo'ladilar. Ularning butun diqqat-e'tibori jonivorni bevosita tomosha qilish bilan band bo'ladi. Shuning uchun tarbiyachi kuzatishni boshqarar ekan, turli usullar bilan jonivorni harakat qilishga undaydi (masalan, ma'lum oraliqda ovqat qo'yadi), bolalarni jonivorni ovqatlantirishga jalb qiladi. Bolalar ovqatni qo'llari bilan ushlaydi va oziqlanishiga qarab zavq oladi, tarbiyachi esa so'z bilan ifoda etib beradi. Bolalar bu so'zlarni tarbiyachidan so'ng takrorlaydi.

Kichkina bolalar o'tkaziladigan kuzatishlar qisqa muddatlidir. Ammo bolalarning diqqatini saqlab qolish uchun tarbiyachi ularning ba'zilariga: oxurga don sepish yoki quyonga sabzi berish, suvdonga suv quyish kabi topshiriqlarni tavsiya etiladi. Jonivorlarning rangi va rang-barangliklarini aniqlash uchun uni silash tavsiya etiladi (agarda imkoniyati bo'lsa).

*O'yin usullari:* harkatga, tovushlarga taqlid qilishdan, o'ziga xos aloqalar o'rnatishdan: “Qush bolalar uchun qo'shiq aytayapti”, “Baliq Boburga qarab, endi Shahzoda tomonga suzayapti kabilardan ham foydalaniladi. Ob-havoni yoki jonsiz tabiatning boshqa obyektlarini kuzatish, o'simliklarni ko'rish jarayonida tarbiyachi bu kuzatishlarni elementar mehnat harakatlari yoki o'yin bilan bog'laydi (xona o'simliklarini tomosha qilishadi va uning barglarini artishadi, piyozni ekishdan oldin tekshirishadi, qum o'ynayotganlarida uning sochiluvchanligini bilib olishadi.).

Yosh bolalar bilan kuzatishlar tashkil etilar ekan turli tadqiqot (tekshirish) harakatlaridan ko'proq foydalanish maqsadga muvofiqdir: kaftni oftobga tutib, issiqlikni sezish, gulni hidlash va hokazo.

*O'rta guruhlar.* Kuzatishdan ko'pincha tanish narsa va hodisalar haqidagi tasavvurlarni kengaytirish, yangi obyektlar bilan tanishtirishda foydalaniladi. Tarbiyachi bolalar bilan birgalikda o'simliklarning o'sishi va rivojlanishi, tabiat hayotidagi yorqin ekologik-mavsumiy o'zgarishlar yuzasidan uzoq muddatli kuzatishlarni ham tashkil qiladi.

Tabiatdagi o'zgarishlarni kuzatish davomida o'rta guruh bolalari kuzatilayotgan narsalarni xarakterli belgilarini: hajmi (katta-kichikligi), rangi, shakli, qismi, proporsiyasi, sathi xarakteri, miqdorini ajratib ko'rsatishni o'rganadilar. Natijada kuzatish tabaqalashtirilgan bo'ladi, bolalardagi kuzatish asosida shakllanadigan tasavvurlar esa ancha aniq va ravshan bo'lib boradi.

Kuzatishning maqsadi ko'pincha mehnat (hozir qushni tomosha qilamiz va uni boqishni o'rganamiz, u endi bizning tabiat burchagimizda yashaydi). Biroq bilish maqsadlaridan ko'proq foydalaniladi. Masalan, boqqa borish va qanday daraxtlar gullaganligini ko'rish, ularni tanishni bilish maqsadida ko'rish va hokazo.

Ba'zan kuzatishlar topishmoqlardan foydalanib tashkil etiladi. Topishmoqlarni javoblarini bolalar narsalarni ko'rib chiqish jarayonida topadilar. Yoki topishmoqning o'zi "narsani" bo'ladi. Masalan, ozuqa qaysi jonivor uchun tayyorlanganligi o'ylanadi, so'ngra kuzatish jarayonida taxminning to'g'riligi tekshiriladi. O'rta guruh bolalari kuzatish uchun zarur bo'lgan muhitni yaratishda qatnasha oladilar (ozuqa tayyorlash, jonivor uchun, joy tayyorlash). Bu bolalarda kuzatishga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

O'rta guruh bolalari bilan olib boriladigan kuzatishlarda tarbiyachi qiyoslashdan foydalana boshlaydi. Ikki narsa qiyoslanadi (ulardan biri bolalarga oldindan tanish). Tarbiyachi qiyoslash uchun belgilarni izchil ajratib ko'rsatib boradi.

O'rta guruhda kuzatishning natijasi hikoya-tasvirlash bo'lishi mumkin. Tarbiyachi bolalarga hikoyaning qisqa rejasini tavsiya etib, ularni ikki-uch savol bilan gapirib berishga undaydi, biroq uning o'zi gapirib bermaydi.

*Katta guruh.* Katta guruh bolalari bilan olib boriladigan kuzatishlar jarayonida ularning obyektlarning xarakterli va muhim belgilari bilan tanishtiriladi. O'simlik va hayvonlarning o'sishi va rivojlanishi, tabiatdagi ekologik mavsumiy o'zgarishlar ustida uzoq muddatli kuzatishlar ham o'tkaziladi.

O'simlik va hayvonlarning o'sishi hamda rivojlanishi, ekologik mavsumiy o'zgarishlar ustida olib borilgan kuzatishlarda davr (fazo), bosqich yoki holatlarning qonuniy izchilligini ko'ra bilish shakllantiriladi. Masalan, o'sayotgan no'xat novdalari, poyasi, barglari, gajaklar, g'unchalar, gul va mevalarning paydo bo'lishini belgilaydilar. Tarbiyachi kuzatishlarga rahbarlik qilishni bevosita vazifalar qo'yishdan, birinchi navbatda bilishga oid vazfalardan foydalanadi (bugungi sayr vaqtida bahor belgilarini topishga harakat qilamiz). Bu yoshda narsalarning asosiy belgilari ko'rish orqali ajratib ko'rsatiladi.

Kuzatishlarda qo'llaniladigan qiyoslash usulari borgan sari xilma-xillashadi: kuzatiladigan obyekt boshqasi, rasmda tasvirlanganligi yoki tasavvurdagisi bilan qiyoslanadi. Faqat ayrim narsa emas. Ekologik tabiat hodisasi ham bog', bahor, qish fasllari va ulardagi ekologik o'zgarishlar qiyoslanib bolalarga tushuncha beriladi. Farqlarni aniqlashda, tarbiyachi bolalar diqqatini bir necha muhim tomonlarini aks ettirgan belgilariga yo'llaydi, masalan, bolalar turli xasharotlarni kuztar ekan, ularning 6 tadan oyoqchasi borligini bilib oladilar. Tarbiyachi kuzatilayotgan obyektlarni qiyoslash uchun vazifa berib, bolalarga erkinlik berib, mustaqil javob oladi, qiynalsa yordam beradi.

Xuddi o'rta guruhlarda bo'lganidek, kuzatish natijalari haqidagi og'zaki hisobot iloji boricha mustaqil bo'lishi lozim. Kuzatish natijalarini bolalar rasmlarda, yasagan buyumlarda aks ettiradilar.

Maktabga tayyorlov guruhi, bu guruhlardagi kuzatishlarga tarbiyachi o'ziga xos xususiyatlari bolalarga kuzatishlarda ko'proq mustaqilliklarini namoyon qilish uchun sharoit yaratishdan iboratdir.

Uzoq muddatli kuzatishlar uchun topshiriqlarning bir qismi bolalarga oldindan beriladi. Tarbiyachi ularni bolalarga ba'zi-ba'zida eslatib turadi.

Qisqa muddatli kuzatishlarda tarbiyachi savol-topshiriqlardan foydalaniladi. Bog'cha yer maydonchalaridagi daraxt va butalarning barglari bir xilda sarg'ayganmi? va shu kabilar. Qo'shimcha savollar faqat bolalar biror narsada qiynalib qolgani holatda foydalaniladi.

Tayyorlov guruhi bolalari, kuzatishlarida oddiy asboblardan – termometr, lupa, lineyka qor qalinligini o'lchash uchun foydalaniladi.

Rasmlarni ko'rish, kinofilm va diafilmlarni namoyish qilish. Ko'rgazmali usullar guruhiga boalar bilan birga rasmlarni ko'rish, diapozitiv va kinofilmlarni namoyish qilish ham kiradi.

Bu usullardan foydalanish xilma-xil vazifalarni hal qilishga: tasavvurlarni aniqlash va oydinlashtirish, bilimlarni sistemalashtirish va umumlashtirish, ekologik-ta'lim tarbiyani, ekologik madaniyatni tarkib toptirishga yordam beradi.

Rasmlar ekologik-tabiat hodislarini yaxshiroq ko'rish, diqqatni uzoq muddat shularga qaratish imkonini beradi, buni esa ko'pincha tabiatni bevosita kuzatishda ekotabiatning xilma-xilligini hamda uning o'zgaruvchanligi tufayli amalga oshirishning imkni bo'lmaydi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda didaktik syujetli narsali hamda badiiy rasmlardan foydalanadi.

Didaktik syujetli va narsali rasmlar bolalarni o'qitishda ko'rgazmali vosita sifatida maxsus yaratilgandir. "Yilning to'rt fasli", "Uy hayvonlari", "Yovvoyi hayvonlar", "O'tsimon o'simliklar" va shu kabi rasmlar majmuasi shular jumlasidandir. Bulardan turli maqsadlarda foydalaniladi.

Rasmlarda barcha yosh guruhlarda foydalaniladi: kichik guruhlarda – tasavvurlarni aniqlash hamda ularni mustahkamlash uchun, maslan, mushukni bolalari bilan kuzatgandan so'ng shunga muvofiq keluvchi rasm ko'riladi. Tarbiyachi bolalarga mushukni bolalari bilan rasmdan tanishga, hayvonlarning xarakterli belgilarini, katta-kichikligi, rangi, ko'zi, qulog'i, dumi, oyoqlari, ba'zi harakatlarini aytishni o'rgatadi.

Rasmni o'rta guruh boallari bilan ko'rish bolalarning bilimlarini kengaytirishga yo'naltiriladi. Rasmlarni ko'rishdan bolalar bilimlarini tizimlashtirish va umumlashtirish maqsadlarida ham foydalaniladi.

Katta guruhlarda rasmlar tushunchalarni shakllantirish uchun qo'llaniladi. Mashg'ulot uchun rasmlar majmuasi tanlanadi. So'ngra rasmlar majmuasi ajratib ko'rsatilgan muhim belgilarga qarab solishtirib ko'riladi. Masalan, maktabga tayyorlov guruhida "Kuz" tushunchasini shakllantirish uchun kuzning turli davrlariga taalluqli tabiatning kuzgi hodisasi tasvirlangan 3 ta rasm tanlanadi. Tarbiyachi rasmni bolalar bilan birga ko'rar ekan, ularning diqqatini tabiatdagi ketma-ket o'zgarishlarga qaratadi: "Kuzning boshidan oxiriga qadar ob-havo qanday o'zgarganligini ayting". So'ngra bolalar diqqatini o'simlik haqidagi o'zgarishlarning, ob-havo sharoitlarining o'zgarishiga bog'liq ekanligini tushuntirishga qaratadi. Badiiy rasmlarni faqat maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan ko'rish maqsadga muvofiqdir.

Amaliy mashg'ulotlar. Tabiatning oddiy hodisasi va narsalari haqida bolalarning tasavvurlarini kengaytirish maqsadida o'tkaziladigan kuzatishlar bilan bir qatorda xilma-xil o'yinlardan keng foydalaniladi. Bu o'yinlarda bolalar sezuvchanlik tajribasini orttiradilar, egallagan bilimlarini ijodiy o'zlashtiradilar.

Bolalarni amaliy metodlar vositasida tabiat bilan tanishtirishda didaktik o'yinlar, harakatli o'yinlar va ijodiy o'yinlardan foydalanish mumkin.

Didaktik o'yinlar, bu o'yinlarda bolalar o'zlarida tabiatdagi predmet va hodisalar, hayvonlar va o'simliklar haqida mavjud bo'lgan bilimlarni aniqlaydilar, mustahkamlaydilar, kengaytiradilar. Ko'pincha o'yinlar bolalarni umumlashtirish hamda klassifikasiya qilishga o'rgatadi. Didaktik o'yinlar xotira, diqqat, kuzatuvchanlikning o'sishiga yordam beradi, bolalarni mavjud bilimlardan yangi sharoitlarda foydalanishga o'rgatadi, turli aqliy jarayonlarni aktivlashtiradi, lug'atni boyitadi, bolalarda birgalikda o'ynash ko'nikmasini tarbiyalashga yordam beradi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda narsali o'yinlar, stol-bosma o'yinlar va og'zaki o'yinlardan foydalaniladi.

Narsali (predmetli) o'yinlar – barglar, urug'lar, gullar, mevalar, sabzavotlar bilan o'ynaladigan «Ajoyib xaltacha», «Mevalar va ildiz», «Butoqdagi kimning bolakaylari» va shu kabi o'yinlardir. Narsali o'yinlarni bolalarning barcha yoshdagi guruhlari bilan ham, shuningdek yoshini hisobga olgan holda, biroz murakkablashtirib, o'ziga xos (individual) holda ham o'tkazish mumkin.

Murakkablashtirish bilimlarni kengaytirish va tafakkur jarayonlarini hamda harakatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Stol-bosma o'yinlari – «Zoologiya lotosi», «Botanika lotosi», «Yilning to'rt fasli», «Kichkintoylar», «Mevalar», «O'simliklar», «Barglarni terib ol», juft rasmlar va shu kabildir. Bu o'yinlar bolalarning o'simliklar, hayvonlar, jonsiz tabiat hodislari haqidagi bilimlarni tizimlashtirish, aytilayotgan so'zga ko'ra, narsa obrazini tiklash ko'nikmasini shakllantirishga yordam beradi.

Og'zaki o'yinlar – hyech qanday jihoz talab qilmasligi tufayli juda maquldir. «Nima uchadi, yuguradi, sakraydi», «Suvda, havoda yerda», «Kerak – kerak emas» va shu kabi o'yinlari shular jumlasidandir. Ular u yoki bu narsalarning funksiyalari hamda harakatlari haqidagi bilimlarni mustahkamlash, bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish maqsadida o'ynaladi. Bu o'yinlar diqqatni, zehnlilikni, reaksiya tezligini, ravon nutqni rivojlantiradi.

Ekologik ta'lim-tarbiya ko'nikma va ekologik madaniyatni singdirish va o'rganish barcha didaktik o'yinlar uchun umumiy bo'lgan qoidalar bo'yicha amalga oshiriladi.

Harakatli o'yinlar, ekologik ta'lim-tarbiya xarakteridagi harakatli o'yinlar hayvonlarning xatti-harakati, ularning hayot tarziga taqlid qilish bilan bog'liq bo'lib, ba'zilar jonsiz tabiat hodisalari asq ettiriladi. Bular «Ona tovuq va jo'jalar», «Mushuk va sichqonlar», «Quyov va yomg'ir», «Bo'rilar va qo'ylar» va shu kabi o'yinlardir. Bolalar bu o'yinlarda harakatlarga, tovushlarga taqlid qilib, bilimlarni chuqurroq egallaydilar. O'yindan zavqlanish bolalardagi tabiatga bo'lgan qiziqishni chuqurlashtiradi.

Ijodiy o'yinlar. O'yinda bolalar mashg'ulot, ekskursiya, kundalik hayot jarayonida olingan taassurotlarni aks ettiradilar, kattalarning tabiatdagi mehnati

(parrandachilik fabrikasi, qoramolchilik fermasi, teplisa va shu kabildagi ishlar) haqidagi bilimlarni egallaydilar, bunda ularda mehnatga ijodiy munosabat shakllanadi, ular kattalarning tabiatdagi xilma-xil jarayonlarga, ayniqsa ekologik salbiy jarayonlarga, bolalarni hayr-ehson, tabiatni e'zozlashga, hurmat qilishga o'rgatiladi, ekologik ta'lim-tarbiyani singdiriradi.

Ijodiy o'yin turlaridan biri tabiiy materiallar: qum, qor, loy, mayda toshchalar, so'ta va shu kabilar bilan o'ynaladigan qurilish o'yinlaridir. Bunda bolalar ijod qilar ekan, materiallarning xususiyatlari va sifatlarini bilib oladilar.

## **II BOB. MAKTABGACHA TA'LIMDA EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYA UZVIYLIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

### **2.1. Maktabgacha ta'limda ekologik ta'lim-tarbiya uzviyligini takomillashtirish usullari, shakl va vositalari.**

Tarbiyachilarga beriladigan ekologik ta'lim-tarbiya o'z oldiga qo'ygan vazifalar quyidagilardir: ekologik bilimlarni to'rlab, ularni saralaydi. Sinaydi va maktabgacha yoshdagi bolalarga ushbu to'plangan ekologik madaniyat va ma'naviyatni asta-sekin uzviy ravishda, uzluksiz shakllantirib boradi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyachilar tomonidan bolalarga berilayotgan ekologik ta'lim-tarbiya obyekti bo'lib, albatta, tabiat resurslari, boyliklari – yer, suv, havo va tabiat boyliklari hisoblanadi.

Bog'cha. Maktab, lisey, kasb-hunar kollejlari albatta, ekologik ta'lim-tarbiyaning barcha bosqichlarida ota-ona, tarbiyachi, Tarbiyachilar, butun jamoatchilik va keng axborot vositalarining xodimlari alohida ekologik ma'naviyatni uzluksiz singdirish va uni shakllantirish maqsadida uzluksiz ravishda ekologiyadan bilim berib borishlari lozim. Tarbiyachilar bog'chada, Tarbiyachilar maktablarda o'z faoliyatlarida turli-tuman tabiatga ko'rsatilgan, ayniqsa salbiy ta'sirlarni bolalarga jonli, tushunarli sodda qilib aytib berishlari kerak. Bu ta'sirlarni konkret misollarda mahalliy joylardagi hodisalarni sodda, lo'nda qilib, yosh bolalarga singdirishi kerak, albatta.

Oilada, bog'cha, maktablarda mehnat jamoalarida ijtimoiy munosabatlar majmuasi inson hayoti faoliyatining ruhiy muhitini yuzaga keltiradi. Ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarning ekologik tomoni deganda, shu munosabatlarning inson, ayniqsa maktabgacha yoshdagi bolalarda, ekologik bilimlar majmuasi rivojlanishiga, shakllanishiga zamin yaratiladi.

Bolalardagi ekologik ta'lim-tarbiya, uning iymon va ekologik ma'naviyatini oshirishda, ularga singdirishda, shakllantirishda ruhiy salomatligini, uning kayfiyatini va uning inson sifida kelajakda kamol topishini muhofaza qilishlikdir. Har bir inson o'zining va atrofdagilarning jismoniy, ruhiy salomatligini asrash va avaylashi kerak. Ahvoli sog'lig'ini yaxshilash tabiat va ijtimoiy ruhiy muhitlar

holatiga bog'liqdir. Bu yerda ijtimoiy muhit yetakchi rol o'ynaydi. Chunki toza ijtimoiy muhitda, yosh bolalarda bog'cha, ayniqsa maktab bolalarida ma'naviyat yaxshi singadi va shakllanadi. Yaxshi ma'naviyatga ega bo'lgan bolalar katta bo'lganlarida ijtimoiy, ruhiy va tabiiy muhit musaffoligini ta'minlay oladi.

Ma'lum bo'ladiki, ijtimoiy muhit vaziyatning yaxshi yoki yomon holatidan yashab turgan aholining iymon darajalari va ma'naviy sifatlari kelib chiqadi. Yomon ruhiy va ijtimoiy muhitlar vaziyatid noma'qul ma'naviy sifatlarni vujudga keladi. Bunday ijtimoiy va ruhiy muhitlarda iymoni va ma'naviyati past inson yetishishi mumkin. Ayniqsa, hozirgi kunda, tarbiyachilar bog'cha bolalarida, maktab Tarbiyachilari, oliy ta'limdagi ustozlar va ommaviy axborotvositalari hodimlari bugungi kunda birdan-bir vazifasi – jamiyatimiz ijtimoiy va ruhiy muhitlarda tozalikini saqlash va aholiga ekologiya ma'naviyati asoslarini o'rgatib borib, ularga ekologik ma'naviyat va madaniyatni singdirish va shakllantirish darkor, bu esa hozirgi kunning dolzarb vazifasidir.

Insonning eng yaxshi fazilatlaridan biri tejamkorlikdir. Tejamkorlik odamlar ekologik ma'naviyati bilan chambarchas bog'liqdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ona tabiatni e'zozlamay, uning boyliklarini tejamdan turib, ularga o'rgatmasdan turib, ularda ekologik ma'naviyatni singdirib bo'lmaydi.

Jamiyat ijtimoiy va ruhiy muhitlarning shakllanishi bevosita inson faoliyati bilan bog'liq. Sog'lom ijtimoiy muhit yaratuvchisi ham inson. Bunda ta'lim-tarbiya muassasalarining roli kattadir. Bularga bog'cha, umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari hamda boshqa ma'rifiy va madaniy-oqartuv muassasalari kiradi.

Ekologik ta'lim-tarbiya beruvchilar orasida o'zaro munosabatlar va maktabgacha ta'lim muassasalarida o'zaro munosabatlar uzviy ravishda rivojlanib, yosh bolalarga, mustaqil fikr yuritish qobiliyati, o'z oilasidan boshlanib, bog'cha, maktab, lisey, kasb-hunar qollejlari, oliy o'quv yurtlari va boshqa ma'rifiy va ma'naviy muassasalar ta'sirida shakllanadi hamda rivojlanadi.

Ekologik ta'lim-tarbiya muassasalarida bolalarda ongli bog'cha bolalarini maktabgacha tarbiyada, ta'lim-tarbiya muassasalarida, yosh avlodlarimizga

ekologik ta'lim-tarbiya avvalom bor, shu sohada jonkuyar tarbiyalovchilar, keng jamoa a'zolari va ota-onalar bilan maslahatlashib ish yuritishlari kerak va lozim.

Ta'lim-tarbiya maktabgacha ta'lim muassasalarida ijtimoiy muhitning shakllanishida ta'lim-tarbiya beruvchi tarbiyachilar bilan tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi munosabatlar majmuasi hal qiluvchi omilni tashkil qiladi. Bu munosabatlar mutlaq pedagogik munosabatlardan iborat bo'lmog'i shart. Pedagogik munosabat deganda ikki kishi o'rtasida faqat ta'lim yoki tarbiya berish maqsadida olib boriladigan muloqotlar anglashiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda tarbiyachi, birinchi sharti ta'lim-tarbiya oluvchilar soni 10-15 nafar boladan oshmasligi kerak. Chunki maktabgacha yoshdagi bolalarda diqqat qilish imkoniyati shuni taqozo etadi. Ekologik ta'lim-tarbiya beruvchilar va ularni bolalar o'rtasida pedagogkaga xos munosabatlar paydo bo'ladi, aksincha pedagogkaga zid munosabatlar bor joyda bilim, ko'nikma, ma'naviyat va madaniyat tarbiyasi bo'lmaydi.

Bu ham qonuniyat tarbiyachilar maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni o'z farzandlari kabi sevishi, ularning ichki dunyosini yaxshi bilishi kerak. Bolalarga ekologik ta'lim-tarbiya berishda, haqiqiy pedagogik munosabat, ya'ni ikki tomonlama aloqa bog'lanish o'rnatilishi kerak.

Tarbiyachi bolalarga ekologiyadan bilim, ko'nikmani asta-sekin, uzviy tabiat hodisalari bilan bog'lab, ularga singdirib, shakllantirib borishlari kerak. Tarbiyachi mashg'ulotni o'tishi emas, mashg'ulotni olib boruvchi bo'lishi kerak. Tarbiyachi va bolalar esa mashg'ulotning ishtirokchisi va muallifi bo'lmog'i kerak. Mana shunda haqiqiy pedagogik munosabat yuzaga keladi.

Hozirgi kunda yoshlarda ekologik ma'naviyatni shakllantirish uchun birinchi navbatda, har bir xalq tarixi, ekologik ma'naviy merosini o'rganishi zarur.

Markaziy Osiyo xalqlari xom ashyo sarflashning yuqori madaniyatiga ega bo'lganligini aniqlash uchun o'tmishga bir nazar tashlaymiz. Markaziy osiyo hududidagi xalqlar, ayniqsa o'zbeklar avloddan-avlodga o'tib kelgan bir qoida mavjud. Bu har qanday sharoitda ham eng kam miqdorda xom ashyo, kuch, vaqt hamda inson mehnatidan foydalanish borasidagi qat'iy qoidadan iborat.

Uvol haqidagi qoida odamlarning boy yoki kambag'alligiga qaramasdan hamma uchun bab-barobar tegishli edi. Uvol qilmaslik, bekorga sarf qilmaslik, tejamkor bo'lishi ba'zi zamondoshlarimiz o'ylagandek, hasislik belgisi emas. Bu yuksak ekologik ma'naviyat va madaniyat belgisi ham bo'lgan. Agar biz katta avlod vakillari, ayniqsa, tarbiyachilar bolalarga to'la ma'noda ishlab chiqarish ma'naviyati, iste'mol ma'naviyati, yashash ma'naviyati, o'zaro munosabat m'naviyati va hokazolar bilan bog'lab ketadi.

Tabiiy resurslarni tejash xislati yosh avlodga bolaligidan singdirilib, shakllanib va bu ma'naviyat to umrining oxirigacha saqlanib qoladi. Mabodo, biror kimsa bu ma'naviyatdan mahrum bo'la boshlagani sezilib qolsa, jamoatchilik unga o'zini qanday tutish kerakligini eslatib qo'yadi.

O'zbekiston aholisining tejamkorligi, puxtaligi, sarishtaligi tabiat boyliklaridan foydalanish, moddiy boyliklarni iste'mol qilish jarayonidagina emas, balki ma'naviy boyliklardan foydalanishda ham hozirgi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik ta'lim-tarbiya tarbiyachilar tomonidan bolalarga uzluksiz, yangi ekologik tizim sifatida ularda singdirilib, shakllantirib borilmoqda, bu jarayon albatta, izchil, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash natijasida amalga oshirilmoqda, bu esa bolalarda ekologik ta'lim ko'nikmalarini singdirishga yordam beradi.

Bolalarda ekologik ta'lim - tarbiyaning uzviyligini takomillashtirishni shakllantirishga xizmat qiladigan mashg'ulot ishlanmasini tuzib Samarqand shahri 119- maktabgacha ta'lim muassasasi bolalariga taqdim etdik.

**Mavzu:** "Bog'da yetishtiriladigan mevalar".

**Mashg'ulotning maqsadi:**

- bolalarga mevali daraxtlar, mevali buta o'simliklari va tok haqida ma'lumotlar berish, bog'da yetishtiriladigan mevali o'simliklar bo'yicha o'quvchilarda bilim va ko'nikmalarni shakllantirish;
- bolalarga mevali daraxtlar, mevali buta o'simliklari va tokni parvarish qilishda odamlarning ko'p mehnati sarflanishini singdirish;

- bolalarning bog'da yetishtiriladigan mevali o'simliklar haqida dunyoqarashlarini shakllantirish va ularning ahamiyatini tushuntirish.

**Mashg'ulotning jihozlari:** mevali o'simliklar mevalari va urug'laridan namunalar, mevali daraxtlar, mevali buta o'simliklari va tok tasvirlangan rasmlar, darslik.

**Mashg'ulotda qo'llaniladigan metod:** suhbatlashish, aqliy hujum, klaster, interfaol metodi, test savollari.

**Mashg'ulotning borishi:** salomlashiladi, navbatchi davomat to'g'risida axborot beradi.

“Poliz ekinlari” mavzusidagi o'tilgan mashg'ulot savol-javob asosida mustahkamlanadi.

1. Poliz ekinlariga nimalar kiradi?
2. Qovun va tarvuz qaysi oyda pishadi?
3. Qovoq qachon ekiladi?
4. Poliz ekinlarining qanday foydali xususiyatlari bor?
5. Qaysi poliz ekinini yaxshi ko'rasiz?
6. Qaysi poliz ekinidan somsa, manti, chuchvara kabi taomlarni tayyorlash mumkin?

**Tarbiyachi:** Aziz bolalar! Hozir biz siz bilan avtobusda xayolan sayohatga chiqamiz.

Guruh taxtasiga nomi yozib qo'yilgan bekatlar tasvirlangan ko'rgazma ilinadi.

Avtobusda har bir bekatda to'xtaydi. Bekatlar “Olmazor”, “Olchazor”, “Uzumzor”, “Anorzor”, “O'rikzor”, “Bodomzor” deya nomlanadi.

**Tarbiyachi:** O'lkamiz bog'larida olma, nok, shaftoli, o'rik, olxo'ri, olcha, gilos, behi, xurmo, bodom daraxtlari o'sadi. Bahor kelib, kunlar iliy boshlashi bilan daraxtlar kurtak chiqarib, gullay boshlaydi.

Erta bahorda barcha mevali daraxtlar tanasining pastki qismi po'stloq kurtaklariga qarshi ohak bilan oqlanadi.

Meva tugganidan keyin zararkunanda hashoratlarga qarshi kimyoviy vositalar sepiladi.

May oyida avval gilos, so'ngra o'rik pishadi.

Iyun oyida olcha, olmaning ertangi navi, shaftoli, olxo'ri mevalari ham birin-ketin pisha boshlaydi.

Iyul va avgust oylarida nok, olmaning turli navlari va bodom mevalari pishadi. Behi oktyabr va noyabr oylarida yetiladi. Eng oxiri xurmo pishadi. Uning hosili noyabr, ba'zan dekabr oyida terib olinadi.

Tarbiyachi avtobus modelining birinchi bekatda to'xtatib olma daraxti va mevasi haqida ma'lumot beradi va qolgan bekatlarda ham yangi mavzuga shu tariqa tushuncha berib boradi. Sayohat davomida o'quvchilar har bir bekatda soha bo'yicha berilgan savollarga o'z fikrlarini bildirib boradilar. Mevali daraxtlarning foydali tomonlariga ham alohida to'xtaladi.

Sayohat davomida mashg'ulot yanada qiziqarli bo'lishi maqsadida "Klaster" usulida musobaqa o'tkaziladi.

Doskaga mevali daraxtlar hisoblangan olma, anor, uzum mevalarining rasmi yopishtiriladi. Har bir qatorda o'tirgan bolalar birin-ketin o'zlariga berilgan mevalar atrofiga ularning xususiyatlarini yozib kelishadi. Masalan, olma mevasi rasmi atrofida shirin, nordon, suvli, yashil, sariq, vitaminlarga boy, kasalliklarga davo kabi.

Mevalarning o'ziga xos xususiyatlarini eng ko'p yozib bergan qator bolalarlari rag'batlantiriladi.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida quyidagi savollar beriladi. Savollar tarbiyachi tomonidan o'qildi. Bolalar esa to'g'ri deb hisoblagan javob variantini daftariga belgilab boradi.

1. Quyidagilardan qaysi biri mevali daraxtlarga kiradi?

A) nok, uzum      B) nok, tol      S) terak, chinor

2. Mevali daraxtlar qayerlarda o'sadi?

A) hovlida      B) tog'larda      S) hovli, bog', tog'larda

3. Mevali daraxtlarning qanday xususiyatlari bor?

A) kishi sog'ligiga foyda

B) manzara va ko'rkamlilik baxsh etadi

S) A va B javob to'g'ri

4. Pishgan nok rangi qanday rangda bo'ladi?

A) qizil

B) sariq

S) qora

5. Husayni va qora janjal navlari qaysi meva navlari?

A) olma

B) anjir

S) uzum

6. Mevali daraxt ko'paytirish uchun nima qilish kerak?

A) ko'proq daraxt ekish va parvarish qilish

B) mevalarni pishmasdan uzib olish va shoxlarini sindirish

S) barglarini mollarga yegizish

Bolalar javoblarini tarbiyachi tekshirib chiqdi va baholadi.

Uyga vazifa qilib uzum, bodom, anor mevalarini chizish va ularning foydali xususiyatlarini aniqlash topshirildi. Mashg'ulot yakunlandi.

Mashg'ulot davomida bolalar mevali daraxtlar va ularni parvarish qilishni, bunda odamlarning ko'p mehnati sarflanishini bilib olishdi. Bolalarning bog'da yetishtiriladigan mevali o'simliklar haqida dunyoqarashi kengaydi. Xulosa qilish mumkinki, o'tilgan mavzu bolalarda ekologik madaniyat tushunchasini shakllanishiga asos bo'ldi.

## **2.2. maktabgacha ta'limda ekologik ta'lim-tarbiya uzviyligini takomillashtirish vositalari.**

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishda tarbiyachi hikoyasidan tabiat haqidagi badiiy kitoblardan hamda og'zaki suhbatdan foydalaniladi. Og'zaki usullardan foydalanish bir qator vazifalarni hal etadi. Tarbiyachi so'z yordamida kuzatishlar va tabiatdagi mehnat jarayonida egallangan, bolalarga ma'lum bo'lgan tabiat hodisalari va hayvonlar hamda o'simliklar hayotiga tegishli faktlari haqidagi bilimlar oydinlashtiriladi, to'ldiriladi, aniqlanadi. Og'zaki usullar yo'li bilan bolalar yangi hodisalar va tabiatdagi narsalar haqidagi bilim va ko'nikmalarni hamda ekologiyaga taalluqli ma'naviy madaniyatni o'zlariga singdiradi (masalan, atrof-muhit ifoloslanishi natijasida, tabiatda nimalarga salbiy ta'siri), suv ifloslanishida, havo ifloslanishida bilib oladilar. Hayvonlar misolida ham, noqulay sharoit va ozuqa yetishmasligi natijasida, qushlarning ko'chib ketishi (migrasiyasini) ularga tushuntiradi. Bunday hollarda og'zaki usuldan ko'rgazmali usul bilan qo'shish, rasmlardan foydalanish zarur.

Albatta, so'z tabiatdagi mavjud turli-tuman aloqa va bog'liqliklarni chuqurroq tushunishga, anglashga yordam beradi (Samorukova, 1984).

Shunday qilib, og'zaki usullar bolalarning tajribasi doirasidan chetga chiquvchi bilimlarni singdirish va shakllantirish imkonini beradi.

Og'zaki usullar yordamida bolalarning tabiat haqidagi bilimlari tizimlashtiriladi va umumlashtiriladi, tabiatshunoslikka oid tushunchalari shakllantiriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki usullardan foydalanishda tarbiyachi, bolalar nutqini tushunishga bo'lgan qobiliyatlarini, uzoq muddatli ixtiyoriy diqqatlarini va so'z orqali berilayotgan mazmunga diqqatni qarata olishlarini, shuningdek bolalarda muhokama, aniqlash, tartiblash, tizimga narsalarni bo'luvchi, u yoki bu hodisa yoki fakt haqida aniq tasavvurlarning bor-yo'qligini e'tiborga oladi. Bu o'rinda ham bolalarga bilimlarni anglashlarida yoki aniqlashlarida ko'mak beruvchi ko'rgazmali qurollardan foydalanish mumkin va maqsadga muvofiqdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga tarbiyachi hikoya usulidan ham foydalanib, bolalarning tajriba va qiziqishlarini nazarda tutgan holda har bir yosh guruhiga mo'ljallab tuziladi.

Uning badiiy adabiyotga nisbatan afzalligi mana shundadir. Hikoyani idrok etish bolalar uchun anchagina murakkab aqliy faoliyatdir. Bola kattalar nutqini eshitish va tinglay olishi, hikoya davomida, uni anglab olishi, og'zaki tasvir asosida yetarlicha jonli obrazlarni faol tasavvur qilishi, tarbiyachi hikoyasidagi voqyea-hodisalarning bir-biriga bog'liqligi hamda munosabatlarni aniqlash va tushunishi, hikoya mazmunidagi yangilikni o'zining avvalgi bilishi bilan qiyoslab ko'rish lozim. Bularning barchasi tarbiyachining tabiat haqidagi hikoyasiga bo'lgan talablarni belgilaydi. Albatta, hikoya qiziqarli, yorqin dinamik syujetli, emosional bo'lishi lozim. Syujetsiz hikoyalar, ortiqcha tasvirlashlar bolalar e'tiborini jalb qilmaydi, esda qolmaydi.

Tilning jonliligi, obrazliligi va aniq, konkretligi-tarbiyachi hikoyasiga qo'yiladigan mutlaq talabdir. Bunday hikoya faqat bola ongigagina emas, balki hissiyotiga ham ta'sir etadi, uni uzoq vaqt eslab qoladi. Birok jonlilik va obrazlilik quruq maqsad bo'lib qolmay, balki hikoya mazmuniga bo'ysunishi kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga turli maqsadlarda: ularga tanish bo'lgan, hodisalar, hayvonlar, o'simliklar haqidagi bilimlarni kengaytirish maqsadida; yangi hodisalar, faktlar, qushlarni qo'riqlash va o'rgatish, yovvoyi o'simliklarni himoya qilish va shu kabilar bilan tanishtirish maqsadida hikoya qilib berish mumkin.

Bunday hollarda, hikoya albatta ko'rgazmali materiallar – foto suratlar, diafilmlar ko'rsatish bilan qo'shib olib boriladi. Ko'rgazmasiz hikoyaga maktabgacha kichik yoshdagi bolalarda qiziqish susayadi hamda u boallar tomonidan yaxshi idrok etilmaydi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar uchun hikoya davomiyligi 10-15 minutdan oshmasligi kerak.

Tarbiyachi kichik yoshdagi bolalarga xilma-xil materiallardan foydalanadi: tabiatga oid shaxsiy kuzatishlar, ajoyib kishilarning hikoyalari, tabiat hodisalari haqidagi hikoyalar va boshqa qiziq tabiatga xos, uning rangbarang hayvonot va o'simlik dunyosi bilan kichik yoshdagi bolalarni tanishtiradi.

Suhbat didaktik vazifalardan kelib chiqqan holda suhbat ikki turga: oldindan o'tkaziladigan suhbatlar va yakuniy suhbatlarga bo'linadi. Oldindan o'tkaziladigan suhbatlarni tarbiyachi kuzatishlar, ekskursiyalardan oldin qo'llaydi. Bunday suhbat maqsadi - bo'lajak kuzatishlar bilan mavjud bilimlar o'rtasida aloqa o'rnatish maqsadida bolalarning bilimini aniqlashdir.

Yakuniy suhbat bilan olingan faktlarni tizimlashtirish va konkretlashtirish, mustahkamlash va aniqlashga xizmat qiladi. Bu suhbatlar mazmunan turli darajada bo'lishi mumkin: ba'zan ayrim obyektlarni tor-qisqa darajada kuzatish natijasida (maslan, issiq o'lkalarga uchib ketuvchi qushlar haqida, yovvoyi hayvonlarning o'rmonda qishlashi haqida va shu kabilar). Boshqalari hodisalarning keng doirasini qamrovchi (masalan, mavsumlar haqida suhbatlar) bolalarning jonsiz tabiat hodisalari, o'simliklar hayoti, hayvonlar, insonlarning mehnati haqidagi bilimlarini tizimlashtirish maqsadida o'tkaziladi.

Suhbat hodisa, fikrlarni analiz qilishdan, ularning xususiyatlari, belglari, hodisalari o'rtasidagi muhim aloqa hamda munosabatlarni ta'kidlashdan boshlanadi. Bunday analiz umumlashtirishga o'tishni ta'minlaydi, tarqoq faktlarni bir tizimga soladi.

Suhbatning birinchi qismida tarbiyachining bolalarga bergan savollari analizni va bolalarni umumlashtirishga tayyorlashni ta'minlaydi. Masalan, "Qaysi qushlar birinchi bo'lib uchib keladi? Qora qarg'ani qanday tanib oldik? Biz ularni qayerda ko'rganmiz? Qora qarg'alar dalada nima qilayotgan edi? Qora qarg'alar nima yeydi?" so'ng keyingi savol beriladi: Nima uchun qora qarg'alar boshqa qushlardan oldin uchib keladi?" (boshqa qushlar – chug'urchuq, qaldirg'och va shu kabilar haqida ham shunday savollar beriladi).

Suhbatning ikkinchi qismida umumlashtiruvchi savolni berish mumkin. "Nima uchun hamma qushlar bir vaqtda uchib kelmaydi?" maktabgacha kichik yoshdagi bolalarning bilimiga tayanish va savollarning mantiqiy izchilligi bolaning zo'r qiziqishini, faol tafakkur faoliyatini, ular tomonidan muhim aloqa va munosabatlarning tushunilishini ta'minlaydi.

Tarbiyachi kichik yoshdagi bolalarga suhbatdagi savollarga bir qator talablar qo'yadi. Savollar butun guruhga beriladi, chunki ular tarkibida doimo aqliy vazifa bo'lib, uni barcha bolalar hal qilishlari lozim. Ular mazmunan aniq, to'g'ri, qisqa bo'lishi kerak. Har bir savolda 1 ta fikr bo'lishi shart. Qisqa "ha" yoki "yo'q" javoblarini talab qiluvchi savollarni berib bo'lmaydi. Bunday savollar tafakkurning o'sishini, munosabatlarning, aniqlanishini ta'minlaydi. Tarbiyachi suhbat vaqtida bolalar hamma narsani o'zidan keyin takrorlanishini emas, balki xulosa, umumlashtirishlarni o'zlari chiqarishlariga g'amxo'rlik qiladi.

Rang-barang ko'rgazmali materiallardan ham foydalanish zarur, ular kichik yoshdagi bolalarga bilimlarni tenglashlariga, hodisalarning muhim belgilarini ajratib ko'rsatishlariga yordam beradi: tabiat, ob-havo kalendarlari, gerbariylar. Bundan tashqari, topishmoqlar, she'rlar, qushlar ovozlari yozuvlaridan foydalaniladi. Bu albatta bo'llarda muhokama qilinayotgan materialga nisbatan emosional munosabat uyg'otadi.

Suhbat bolalarni tabiat bilan tanishtirish usuli sifatida o'rta, katta va maktabga tayyorlov guruhlarida qo'llaniladi. O'rta guruhlarda suhbat asosan hodisalarni eslatishga, katta va maktabga tayyorlov guru-larida mavjud bilim, ko'nikma, ekologik ma'naviyatni umumlashtirish va ularni tartibga solishga yo'naltiriladi.

Tabiat haqidagi bilim va ko'nikmalarni bolalarga tarbiyachi tarbiyaviy maqsadlarda foydalanadi. Tabiatga taalluqli adabiyotlar, ayni vaqtda san'atning bir turidir. U, albatta, san'atning bir turi sifatida faqat yosh bolaning aqligagina emas, balki uning hissiyotiga ham ta'sir etadi. V.Bianki, M.Prishvin, N.Pavlova, N.Sladkov tomonidan obrazli tasvirlangan bog'larning chamandek gullashi, o'tloqlarning rang-baringligi, g'aroyib daraxtlar bolada tabiatga nisbatan estetik munosabatni, uni sevishni shakllantirish imkonini beradi.

Tabiatshunoslik bolalarda ko'nikma, bilimga bo'lgan qiziqishni, kuzatuvchanlikni bilimga bo'lgan havasni tarbiyalash uchun boy material beradi. U kichik yoshdagi bolalar oldiga yangi savollarni qo'yadi, bolalarni atrofdagi tabiatga diqqat bilan qarashga majbur qiladi.

Tabiat haqidagi bolalar kitoblar tarbiyachi qo'lida katta bilim olish va berish qiymatiga ega. U kuzatilayotgan joydan chetga olib chiqadi va shu orqali bolalarning bilim, ko'nikmalarini, tabiat haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi, bolani bevosita idrok eta olmaydigan hodisalar bilan tanishtiradi. Tabiat to'g'risidagi bilimlar orqali boshqa iqlim xududlaridagi tabiat hodisalari, hayvon va o'simliklarning hayoti haqida bilish, narsa va hodisalar haqidagi mavjud tasavvurlarni aniqlaydi hamda uni oydinlashtiradi. Tabiat haqidagi bilimlar maktabgacha yoshdagi bolalarga jonsiz tabiat hodisalarini ochib beradi, tabiatda mavjud bo'lgan aloqa va munosabatlarni aniqlashga yordam beradi.

V.Biankining asarlari tarbiyachiga tabiatning murakkab hodisalarini maktabgacha yoshdagi bolalarga qiziqarli shaklda ochib berishga, tabiat dunyosida mavjud bo'lgan qonuniyatlarni: organizmlarning o'zaro ta'siri va shu kabilarni ko'rsatishga imkon beradi.

Tarbiyachi V.Biankining asarlaridan bolalarga tabiat dunyosi doimiy o'zgarishda, rivojlanishda ekanligini ko'rsatish uchun ham foydalaniladi, uning asarlarida bolalar jonsiz tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlarni bilib oladilar.

Tabiatshunoslik kitobi bolalarga tarbiyachi barcha yosh guruhlariga ma'lumot, bilim, ko'nikma berishda va bilimlar saviyasini oshirishda foydalidir. Biroq badiiy so'z va bolalarning bevosita kuzatishlarini ustalik bilan biriktirish lozim.

Tabiat ne'matlaridan maktabgacha yoshdagi bolalar bilan bo'ladigan ishda turli maqsadlarda foydalaniladi. Bolalar oldiga vazifa qo'yish bo'lajak kuzatishga qiziqish uyg'otish uchun kuzatishdan oldin kichik hiqoya, ertak aytib berish mumkin.

Tabiatshunoslik kitoblarini tarbiyachi bolalarga kuzatishdan keyin ham o'qib beradi. Bunday holatda badiiy asarlar ko'riganda yakun yasash, to'ldirish, kuzatishni chuqurlashtirishga, bolalar diqqatini tabiat hodisalarini kelgusida ham idrok etish uchun yo'llashga yordam beradi.

Tabiatshunoslik kitobi bolalarda jonsiz tabiat hodisalarini ochib beradi, tabiatda mavjud bo'lgan aloqa va munosabatlarni aniqlashga yordam beradi.

Bunda Q.Hikmat, Po'lat Mo'min, Ilyos Muslim va Q.Muhammadiylarning tabiat haqidagi she'rlari, ertaklaridan ham keng foydalanish mumkin.

Ekologiya va madaniyat juda keng qamrovli tushunchalardir. Madaniyat ekologiyaga va aksincha, ekologiya madaniyatga turli sohalarda ta'sir ko'rsatadi. Bu tushunchalar uchun umumiy bo'lgan manbalar ham xilma-xildir. Faqat madaniyatli kishigina tabiat va jamiyatning o'zaro ta'sirini oqilona yo'lga qo'yishga intiladi. Bu boradagi faoliyatni ham uning madaniyati belgilab beradi. Madaniyat insonlarni bilimli qilishga, ularga ish tartib-qoidalarini o'rgatishga qolaversa, ishlab chiqarishni, texnika va fanni ekologiyalashtirishga xizmat qiladi.

Ekologik madaniyat sohibi bo'lish faqat tabiatga zarar keltirmaslik emas, balki uning gullab yashnashi, yanada yaxshilanishiga hissa qo'shish, unga beshafqatlarcha munosabatda bo'lganlarga qarshi kurashmoq ham demakdir. Hozirgi vaqtda respublikamiz miqiyosida "Ekosan" Xalqaro jamiyati tuzilgan. Uning shiori: "Tabiatga oqilona munosabatda bo'!" jamg'arma faoliyati doirasida, albatta, aholining ekologik ongini, ayniqsa maktabgacha ta'lim muassasasi, maktab, lesey, kasb-hunar kolleji va talabalar madaniyat-ma'naviyatini shakllantirish, ularda yuksaltirish va tabiatni muhofaza qilish bo'yicha ishlar, ko'pdan-ko'p ko'rgazmali qurollardan, radio, televideniye va gazeta-jurnallardan, ko'pchilik ommaviy-axborot vositalaridan foydalanilmoqda.

Umuman, ekologik madaniyatning shakllanishi va rivojlanishi uzoq davom etadigan murakkab jarayondir. Bu gap ekologik madaniyatga ham taalluqlidir.

Insonlarning ekologik madaniyati hali unchalik darajada yuqori deb bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 1992 yildagi "Tabiatni muhofaza etishni kuchaytirish va tabiat boyliklaridan foydalanishni yaxshilash bo'yicha qo'shimcha tadbirlar to'g'risida"gi qarorida tabiat haqidagi bilimlarni, aholi o'rtasida keng yoyish hamda maktabgacha kichik yoshdagi bolalarga tabiat haqidagi bilimlarni tushuntirish, ko'nikmalarni singdirish va ularda bu bilimlarni shakllantirib borish lozim va kerak.

Ekologik madaniyatdan tashqari tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalarda ularning qiziqishlaridan samarali va unumli foydalanishi lozim. Bunday faollikni

rivojlantirishda va ularda shakllantirishda mahalliy joylarda, ya'ni bog'cha va maktab, ta'lim-tarbiya maskanlarida tabiatni va xilma-xil resurslarini himoyalash to'g'risida bog'chada tarbiyachi tomonidan singdirib va shakllantirib borish zamon talabidir.

Tarbiyalanuvchilarga tarbiyachi faqat ona tabiat ne'matlaridan oqilona foydalanish asoslarini o'rgatish bilangina ularda ekologik madaniyatni tarbiyalay olmaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni albatta, tabiatdan oqilona foydalanishga, ma'naviy-madaniy boylik yaratishga o'rgatish, ularga tabiat faqat foyda olish uchungina emas, balki go'zallik qonuniyatlariga ko'ra o'zgartirishini tushuntirish axloqiy talablarga to'la to'g'ri keladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik madaniyatni shakllantirishda quyidagi talablarga amal qilish kerak.

Birinchidan, maktabgacha yoshdagi bolalarning hissiyotiga ta'sir etish, ularning yosh qalbida bolalik davrlaridanoq ona tabiatga muhabbat uyg'otish lozim. Bu tarbiya qanchalik erta boshlanib, izchil rivojlantirilsa, u shunchalik ijobiy samara beradi.

Ikkinchidan, yosh murg'ak bolalar qalbida ularning ongida tabiatni muhofaza etish va u bilan oqilona o'zaro ta'sir masalalarida faol hayotiy nuqtai-nazarni shakllantirish, uni insonning axloqiy estetik saviyasi darajasi tarzida tavsiflash mumkin. Hozirgi kunda jamiyatning har bir a'zosi, uning tabiat muhit holatiga, tobora kundan-kunga ortib borayotganini anglashi zarur. Demak, hozir respublika aholisining – 65%ni yoshlar tashkil etadi. Shuning uchun har bir yosh murg'ak qalb egalari, tabiatni asrab-avaylamoq kerakligini sezishi, ularga singdirish darkor.

Uchinchidan, ekologik madaniyatni yuksaltirish ekologik ta'lim olishni uzluksiz davom ettirishni taqozo etadi. Maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab, lisey, kasb-hunar kollejlariida tabiiy fanlar majmuiga kiruvchi ekologik ma'naviyatni, madaniyatni o'rganib borishlari lozim bo'ladi.

Ekologik madaniyatni shakllantirish hozirgi vaqtda shakllanayotgan yangi fan, ijtimoiy ekologiya qonunlarini qamrab olgan ilmiy ijtimoiy taraqqiyot nazariyasiga tayanadi. Agar tabiiy jarayonlarni o'rganishga yo'nalgan an'anaviy

fanlar tabiatni “bo’ysundirish” maqsadida jamiyatning tabiatga ta’sirini kengaytirish ehtiyojlari asosida paydo bo’lgan bo’lsa, ijtimoiy ekologiya esa, odamlar hayotining tabiiy sharoitlarni muhofaza etish uchun jamiyatning tabiat bilan o’zaro ta’sirini uyg’unlashtirish zarurati tufayli yuzaga keldi.

Insoniyat endilikda tabiatdan faqat olavermaydi. Zero, tabiatning boylik yaratish imkoniyati cheklangan. Shu sababli inson endilikda tabiatning o’z-o’zini tiklashiga yordam berish kerak.

*Tajriba sinov.* Pedagogik tajriba sinovi tushunchasi ko’p qirralidir. Pedagogik tajribaning keng ma’nosi – ta’lim va tarbiya amaliyotidir, ya’ni maktabgacha ta’lim muassasalarida olib boriladigan ta’lim-tarbiya ishlari qay darajada amalga oshirilayotganini o’rganishdir. Pedagogikaning ko’pchilik muammolarini hal etish uchun real vujudga kelayotgan ta’lim-tarbiya jarayonini o’rganish, tarbiyachilarning ijodiy kashfiyotlarining nazariy asosda idrok etish va ishlab chiqish, ya’ni ilg’or zamonaviy texnologiyalarni, tajribalarni umumlashtirish va yoyish g’oyat katta ahamiyatga egadir.

Tajriba sinovi natijasida, olingan faktik materiallar natijalanadi, sxema, diagramma, grafikada aks ettiruvchi matematik usul ham qo’llaniladi. Ekologik ta’lim-tarbiyada, tajriba tadqiqotlari olib borishning asosiy usullarini bilish ijodiy ishlaydigan tarbiyachiga uni qiziqtiruvchi sohada mustaqil ilmiy tajriba sinovining, izlanishni olib borishda, boshqalarning tajribasini o’rganish va baholashda yordam beradi. Bolalar hodisalarni, narsa va hodisalar o’rtasidagi aloqa hamda munosabatlarning sabablarini aniqlashlari uchun elementar tajribalardan foydalaniladi, biroq bunda boshqa usullardan (kuzatishlar, evristik suhbat) foydalanishning imkoni bo’lmasligi mumkin. Tajriba shartining muhokamasi tarbiyachi rahbarligi ostida o’tadi. Tajribaning hamma shartlari tenglashtirilishi va faqat ulardan bittasi – tajribaning natijasiga ta’sir etadigan alohida ajratilishi, bolalarga ko’rsatilishi hamda ular tomonidan tushuntirilishi lozim. Tajriba uzoq muddatli qiyoslanadigan yoki qisqa muddatli kuzatish tarzida o’tkazilishi mumkin. Uzoq muddatli qiyoslanadigan kuzatishda natijalar kechiktirilganligi tufayli tajribaning ayrim alohida xarakterli bosqichlari surat (rasm) sxemalarida qayd

qilish lozim. Agarda vazifa qisqa muddatli kuzatish jarayonida hal etiladigan bo'lsa, tajriba natijalari darhol muhokama etiladi, bolalar bilan birgalikda tajriba o'tadigan sharoit analiz qilinadi, natijalar qiyoslanadi, xulosalar chiqariladi. Uzoq muddatli xarakterdagi tajriba davomida tarbiyachi bolalarning qiziqishlarini sodir bo'layotgan o'zgarishlarga jalb qilib turadi, ularni nima uchun tajriba o'tkazilayotganligini anglashlariga olib keladi.

Tajribaning yakunlovchi payti olingan tajribalar asosida xulosalar chiqarishdir. Tarbiyachi bolalarni mustaqil xulosalar chiqarishga undaydi.

Tajribalarni tashkil etish jarayonida tirik obyektlarni halok bo'lishiga olib kelmaslik, ularning hayotiy muhim ko'rinishlarini buzmaslik kerak. Shuning uchun ham sezilarli o'zgarishlar paydo bo'lishi bilanoq (masalan, qorong'i joyda o'simliklarning nihollari sarg'ayadi va yotib qoladi) sharoitni darhol o'zgartirish lozim. Tajriba yakunida, o'zgarishlar aniq bo'lib qolganda, tarbiyachi bolalarga o'simliklarni qiyoslashni va xulosalar chiqarishni taklif qiladi.

### **2.3. Tadbir va sayrlar orqali bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish.**

Mustaqillik sharofati bilan amalga oshiriyotgan ta'lim islohotlari jamiyatimizda muhim ijtimoiy vazifani bajarmoqda. Milliy dasturni amalga oshirish, bu avvalo yoshlarni bilimli, mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy faol va tanlagan kasbini chuqur egallab, jamiyat ma'naviy va moddiy rivojiga o'zining ulkan hissasini qo'shuvchi shaxs qilib tarbiyalash demakdir.

Tarbiyaviy vazifalar majmuasi davlat tomonidan ijtimoiy buyurtma tarzida berilib, tarbiyaning umumiy maqsad va prinsiplarini belgilab beradi. Umumiy maqsad tarbiya vazifalarida aniqlanib, bolalarning ijtimoiy tajriba va madaniyatini, milliy istiqlol g'oyasini, ilmiy dunyoqarashini hamda individual ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi.

Tarbiyaviy jarayon samaradorligi ko'p jihatdan bolalar va pedagoglarning o'zaro hamkorlik va ishonchiga bog'liq. Agar pedagoglar jamoasi bolalar jamoasini jipslashtira olsa, tarbiyaviy ishlari samaradorligi istiqbolli bo'lishi mumkin.

Pedagoglar jamoasi bolalar jamoasi uchun tarbiya subyekti rolini bajaradi.

Maktabgacha ta'lim muassasasidagi tarbiyaviy tizim o'z rivojlanishida to'rt asosiy bosqichni bosib o'tadi:

1. Eng avvalo, tizimning shakllanishida tarbiyaviy jarayonni tartibga keltiruvchi shart-sharoitni yaratish;
2. Tarbiyaviy mazmuni va tuzilishining (asosiy komponent va hamkorlik) shakllanishi;
3. Tarbiyaviy tizimning komponentlar yaxlitligi va yagona bog'lanish – aloqadorlikni shakllantirish;
4. O'zgarishlarni inobatga olib, tizimni takomillashtirish va qayta qurish.

Tarbiyaviy ishlar tashkiliy shakllanishi belgilaganda ma'lum me'yorlarga rioya qilmoq kerak. Bunda istiqbolli va tezkor tarbiyaviy ishlar rejasini tuzish, tarbiyaviy komplekslar modellari orqali ta'sir ko'rsatish va ma'rifat xonalarida tashkil qilinadigan tadbirlarning ta'sirchan shakllarini topish muhimdir.

Tarbiyaviy tizim komponentlari tarkibida metodlar ham muhim funksiyani amalga oshiradi. Ular eng avvalo obyekt bilan subyekt (ya'ni tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar)ning tarbiyaviy jarayonida o'z faoliyatlarini o'zaro uyg'unlashtirish vazifani o'taydi. Metodlar ikki faoliyat yaxlitligini ta'minlab, tarbiyaviy ta'sirning kuchayishiga olib keladi. Bunda tarbiyachi subyektning xususiyati – yoshi, bilim saviyasi, tarbiyalanganlik darajasi, unda qanaqa sifatlarni ayni vaqtda shakllantirish zaruriyatidan kelib chiqib, metodni tanlaydi. Shu asosda bolalarning psixofiziologik xususiyatlaridan kelib chiqib, metodlarning ta'sir dorasini sinovdan o'tkazadi.

Tarbiyaviy tizimga kiruvchi muhim komponentlari bo'lmish prinsiplar majburiy xarakter kasb etib, ammo metodni tanlashda obyekt erkinlikka ega bo'lib, subyekt xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Tarbiyaviy jarayonni samarali boshqarish tizim komponentlarining o'zaro muvofiqligini, tarbiyaviy qonuniyatlari va prinsiplarini bilish asosida bo'lishi mumkin. Shu bilan birga tarbiyaviy ishlarning hamma bo'g'inlari haqida aniq axborotlarga ega bo'lish, o'z ishining metod va shakllarini chuqur va muntazam tahlil qilish hamda bolalarning o'z-o'zini boshqarishga tayanish ham juda zarur shartlaridan hisoblanadi.

Pedagoglar tarbiyaviy subyektlari sifatida boshqarish jarayonida fao ishtirok etib, maqsadlarini har tomonlama boyitadilar. Ular yangidan-yangi vazifalarni belgilab, ularni amal oshirib, tizimni yuqori bosqichga ko'taradilar. Shu asosda yaxlit tarbiyaviy ish ritmi shakllanib, tarbiyaviy tizim harakatini ta'minlaydilar.

Hozirgi davrda atrof-muhit sofliги uchun kurash dunyo xalqlarining global muammosiga aylanib bormoqda. Bu muammoni hal etish uchun faqat ekologik tashkilotlar tuzish, shartnomalar va kelishuvlar belgilash, turli dasturlar yaratish, ilmiy tadqiqotlar olib borishning o'zi kifoya qilmayapti. Sog'lom muhit yaratish barkamol avlod mezoni bo'lganidek mazkur muammoni ha etishning asl mohiyatini har bir kishi, jamiyatda yashayotgan har bir inson ongiga singdirish eng muhim vazifa bo'lib qoldi. Ekologik ojeaning asl sabablarini angab yetgan insongina o'z faoliyatida bunga yo'l qo'ymasligi muqarrar.

Bu borada yosh avlodning ekologik madaniyatini rivojlantirish olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarga bevosita bog'liq.

Ekologik ta'lim – tarbiyaning asosiy maqsadi va avlodda atrof-muhitga onglimunosabatni shakllantirishdir. Ekologik tarbiyani bolalarni tabiatni asrab-avaylashga, uni sevishtga, unga oqiona, munosabatda bo'lishga, o'z maktabi, o'zi yashab turgan oilasi, mahallasi, qishloq va shaharini ozoda saqlashga, uni ko'kalamzorlashtirishga, mevali bog'lar yaratishda o'z hissalarini qo'shishga, hayvonot dunyosiga g'amxo'rlik qilishga, qo'yingki, yer, suv, havoning musaffoligiga erishish misolida atrof-muhitni, butun nabotot dunyosini e'zozlashga o'rgatadi. Bu esa o'z navbatida bolalarga ekologik bilim va tarbiya berish bilan birga unda ekologik madaniyatni shakllantirishni ham taqozo etadi. Ekologik madaniyat yosh avloddan, umuman, insondan tabiat boyiklaridan oqilona foydalanish bilan birga vaziyatni sog'lomlashtirishni, ekologik xavfsizlikni ta'minlashni, inson va tabiat o'rtasidagi uyg'un munosabatlarga oid milliy va umumbashariy tajribalarni o'rganishga va hayotga tadbiiq qilishni, tabiatning yanada go'zallashuvi, gullab-yashnashi uchun hissa qo'shishini taqozo etadi. Bu faoliyat debochasi esa bolalikdan boshlanadi.

Biz tadqiqot ishimiz jarayonida ko'plab tarbiyaviy tadbirlarni kuzatdik va bu tadbirlarning bola ruhiyatiga, aqliy salohiyatining o'sishiga nechog'lik ta'sir o'tkazayotganligini aniqladik. Ekologik madaniyatning shakllantirishga doir tarbiyaviy tadbir rejasini ishlab chiqdik va Samarqand shahridagi 119- son maktabgach ta'lim muassasasi o'rta guruh bolalari bilan hamkorlikda amaliyotda sinab ko'rdik. Bunda bizga sinf rahbari oliy toifali Tarbiyachi Isoqova Dilfuza opa ko'maklashdi.

Tadbirimizni hosil bayramiga bag'ishladik va "Mehrjon" bayrami deb nomladik. Tadbirda 20 ta bola faol ishtirok etdi. Tadbir maktabgach ta'lim muassasasining faollar zalida o'tkazildi. Zal bayramona bezatildi. Sahna tepasiga sharlar bilan "Mehrjon" deb yozib qo'yildi. Sahna chetlariga gullar va poliz ekinlarining sun'iy ko'rinishlari bezak sifatida qo'yildi. Bayramga maktabgach

ta'lim muassasasining pedagoglari, ota-onalar va ta'lim oluvchilar taklif etildi. Tadbirni sinf rahbari Isoqova Dilfuza opa kirish so'zi bilan ochib berdi:

- Assalomu alaykum, qalbi qaynoq, mehri daryo ustozlar, mehribon ota-onalar, hurmatli va aziz bolalar. Tadbirimizga xush kelibsizlar. Bugungi tadbirimiz hosil bayramiga bag'ishlangan. Bu bayramni biz dehqon bobolarimizning sharafi mehnatlariga bag'ishladik. Ularga hosilni nest-nobud qilmay yig'ishtirib bizlarga taqdim etgani uchun rahmat aytamiz. Endi bolalarimizning chiqishlarini tomosha qilaylik. Ko'rib bahra oling. Marhamat bolalar.

Bolalar bayramona kiyimda "Bugun bayram" musiqasi ostida sahnaga chiqib kelishdi. Bolalar birin-ketin so'zga chiqishdi.

**G'olib:** - Assalomu alaykum, aziz ustozlar va hurmatli mehmonlar.

**Barchin :** - Assalomu alaykum, tengdoshlar! Barchangizni hosil bayrami bilan tabriklaymiz.

**O'g'il va qiz (birgalikda):** Qutlaymiz.

**Dilshod:** Ha, otin kuz o'lkamizga kirib keldi. Butun olam sariqlikka burkanib, oltindek tovlanmoqda.

**Zulfiya:** Kuz fasli – qut-baraka fasli hisoblanadi.

**Xurshid:** To'g'ri aytasan, Hamida. Kuzda bog'bon bobolarimiz o'z mehnatlarining samarasini ko'radi. Hosilni yig'ib olib xalqqa taqdim etadi.

**Salima:** Voy bolalar qaranglar, davramizga bog'bon bobo kirib kelyapti.

Bog'bon bobo kiyimida bir o'quvchi sahnaga kirib keladi. Qo'lida hissasi bor, boshida qiyiqchaga o'ralgan do'ppisi choponning bir cheti belbog'iga qistirilgan.

**Bolalar birgalikda:** Assalomu alaykum bog'bon bobo. Davramizga marhabo.

**Dehqon bobo:** Vaalaykum assalom, salomat bo'ling. Shu yerdan o'ta turib men haqidagi suhbatingiz qulog'imga chalindi.

**Akrom:** To'g'ri aytasiz bobojon, biz siz va sizning mehnatingiz haqida gaplashib turgan edik. Bugun hosil bayrami, siz yetishtirgan meva va sabzavotlar kishilar ko'nglidan joy olgan hamma sizdan xursand.

**Nigora:** Azamat to'g'ri aytayapti, bobojon. Siz yetishtirgan mevalardan bahra olib ularga bag'ishlab she'rlar ham yodlab qo'yganmiz.

Bog'bon bobo: Qani bir eshitaylikchi unda.

Bolalar mevalar rasmi tushirilgan rasmlarni qo'lida tutib navbatma-navbat sahnada she'r o'qiy boshlashdi.

Zamira (qo'lida uzum rasmi bilan)

- *Kishmish, charos, doroyi,*  
*Oltin kabi husayni,*  
*To'yib-to'yib yesang ham,*  
*Tag'in ko'ngling tusaydi.*

Toxir (qo'lida olma rasmi bilan)

- *Yuzlarim taram-taram,*  
*Yesangiz mazza biram*  
*Darmonlarning koniman,*  
*Asli darmondoriman.*

Xadicha (qo'lida anor rasmi bilan)

- *Anorman, qizi yuzim,*  
*Yumaloqman men o'zim.*  
*Ohista ochib po'stim*  
*Mazza qilib ye, do'stim*

Shoira (qo'lida yong'oq rasmi bilan)

- *Kuz kelganda pishaman,*  
*Qoqsang, tap-tap tushaman*  
*Yog'li qilib noningni*  
*Tozalayman qoningni.*

Bog'bon bobo: Rahmat aziz bolalarim, aqli raso donolarim. Men yetishtirgan mevalar to'g'risida she'r ar aytib, meni juda xursand ayadingiz.

Shu o'rinda o'g'il bolalar "Andijon polkasi"ga raqsga tushishadi.

Bog'bon bobo: Bolajonlarim, siz judayam bilog'onga o'xshayapsiz. Qani aytingchi, siz mustaqil O'zbekistonimizning rivojlanishida, gulab yashnashida, tabiatimizni asrashda nimaar qilayapsiz?

Zulfiya: mashg'ulotlarda faol ishtirok etib, yaxshi baholar olayapmiz.

Akmal: Uy yumushlarida ota-onalarimizga ko'maklashayapmiz.

Rahima: Men har kuni hovlilarni, uylarni supuraman, changlarni artaman.

Madina: Dadam bozordan mevalar olib kelsa, ukalarim bilan isrof qilmasdan ahil bo'lib yeymiz.

Durdona: Men opamdan gullar parvarish qilishni o'rganganman. Erta turib gullarga suv quyaman.

Bog'bon bobo: Barakalla bolalarim. Siz ko'p ishlarga qodir ekansiz. Qani, aytingchi mevalarni isrof qilmaslikdan, hovlilarni saranjom-sarishta tutishdan, gullarga suv quyishdan maqsadingiz nima?

Shahlo: Bobojon, axir bular tabiatni asrashning bir belgisidir.

Jamila: Gullarga suv quyib ularni parvarish qilishimiz o'z sog'lig'imizga ham foyda, qolaversa kishiga estetik zavq bag'ishlaydi.

Sobit: Mevalar odam organizmi uchun asosiy vitaminlar hisoblanadi. Shunday ekan, biz ko'plab mevali daraxtlar ekishda va uni parvarishlashda sizga yordamlashishimiz darkor.

Bog'bon bobo: Bolajonlarim, siz tabiatga qanday hissa qo'shish kerakligini juda yaxshi bilar ekansiz. Men shunday tengdoshlaringizni bilaman, ular mevalarni isrof qilishadi, daraxt shohlarini sindirishadi, atrof-muhitni tozalamay, chiqindilar tashlashadi, suvni behudaga isrof qilishadi, qushlar va hayvonlarga ozor yetkazishadi.

To'lqin: To'g'ri aytasiz bobojon, tengdoshlarimiz orasida shunday odobsiz bolalar ham uchraydi. Biz butun sinfimiz bilan bunday bolalarga qarshimiz. Shunday bolalarni uchratsak, ularni bu yo'ldan qaytarishga undayapmiz. Siz xavotir olmang, hademay oramizda bunday tarbiyasiz bolalar qolmaydi. Hamma bolalar birgalikda tabiatni asrashga, uni yanada go'zallashtirishga harakat qiladi.

Bolalar birgalikda: Biz bunga va'da beramiz.

Bog'bon bobo: Rahmat mehribonlarim. Sizdan bag'oyatda xursandman.

Qizlar "Yalla" kuyiga raqsga tushadi.

Bog'bon bobo: Rahmat qizaloqlarim. Bolajonlar men hozir sizga bir topishmoq aytaman. Qani kim birinchi bo'lib topar ekan. Diqqat bian tinglang:

- *Kim topadi, toping-chi*  
*O'zi sariq, og'zi bor*  
*Gullamaydi, nozi bor*  
*Yumaloq ham yapaloq,*  
*Bargi katta shapaloq*  
*Kim topadi, kim abjir?*

Bolalar birgalikda: Bumi, bobojon, anjir.

Bog'bon bobo: juda to'g'ri topdingiz.

Vali: Bobojon men ham topishmoq aytsam maylimi?

Bog'bon bobo: Ha, albatta, marhamat.

- *Egri-bugri tanasi*  
*Qirra bargi onasi*  
*Tizilgan marjon-marjon*  
*Yesang topasan darmon.*

Farrux: Bumi, Valijon, uzum.

Vali: To'g'ri.

Farrux: men ham bitta aytaman:

- *Ipga tizilgan go'yo*  
*O'ylab ko'rchi Mahliyo*  
*Bor uning ikki beti*  
*Qip-qizil yumshoq eti.*

Mahliyo: bumi Farrux, olvoli

Nodir:

- *Yuzida niqobi bor*  
*"Tuya tishi" nomi bor*  
*O'zi nordon ham shirin*

*Bunda hikmat yashirin.*

Ma'ruf: bumi Nodirjon, anor.

Nodir: to'g'ri topding.

Bog'bon bobo: Hammangizga rahmat bolalarim. Sizdan rostdan ham aqlli, dono, zukko bolalar ekansiz. Men sizlardan xursandman. Endi men boray, hai qiladigan ishlarim ko'p. Biz yana ko'rishamiz. Xayr salomat bo'ling.

Bolalar: Xayr bobojon, kelganingizdan xursandmiz. Yana kelib turing. Xayr.

Bolalar va qizlar "Dilxiroj"ga raqs tushishadi.

Tadbir nihoyasiga yetdi. Bolalar mehmonlarga ta'zim qilib sahnani tark etishdi.

Tarbiyachi: rahmat bolalar. Aziz mehmonlar tashrifingiz uchun rahmat. Shu bilan tadbirimiz nihoyasiga yetdi. Yana ko'rishguncha xayr. Salomat bo'ling!

Bu tarbiyaviy tadbir bolalarda ekologik madaniyatni shakllanishiga turtki beradi.

## XULOSA

Hozirgi davrga kelib, insoniyat tabiatga ongli madaniy munosabatda bo'lish, uning kelajagini belgilovchi omil ekanligini anglay boshladi. Shu asosda "Tabiat – jamiyat – inson" munosabatlarini tabiat foydasiga isloh qilish, unga madaniy munosabatda bo'lish jarayoni kelajakda madaniyat shakllanishining ekologik ehtiyojlar doirasida integrasiyalashuvi natijasida ekologik-ahloqiy madaniyat, ekologik-huquqiy madaniyat, ekologik – iqtisodiy madaniyat va boshqa ekologik madaniyat yo'nalishlari vujudga kelib, o'z mazmuni vazifalarini konkretlashtirmoqda. Ekologik madaniyat maxsus ijtimoiy madaniyat sifatida inson va jamiyatning tabiatga nisbatan amaliy munosabatini tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilish funksiyalarini bajaradi. Tabiiy atrof–muhit muhofazasining olamshumul muammoga aylanishi va kattalashib ketayotganligi ijtimoiy hayotda ekologik madaniyatning ustuvorlashib borishi qonuniyati vujudga keldi. Chunki mamlakatlarning notekis rivojlanayotganligi tabiiy atrof–muhit muhofazasiga, ayniqsa, uning texnik-texnologik, intellektual, moddiy–ma'naviy imkoniyatlarini cheklanganligi:

Ilmiy adabiyotlar bilan tanishish va amalga oshirgan ilmiy izlanishlarimiz natijasida quyidagicha xulosalarga keldik:

1. Ekologik ta'lim-tarbiyada, ayniqsa, tabiatni e'zozlash haqidagi sharqona, o'zbekona ta'lim-tarbiyada hikmat ko'p, tabiatga mehr-muhabbat borasida oilada, bog'chada keyin esa maktabda, lisey va kasb-hunar kollejlarida ekologik ta'lim-tarbiya uzluksiz bolalarga singdirilib, shakllantirilib borishi lozim.

2. Ekologik ta'lim-tarbiyaga oid bo'lgan ajdodlarimiz asriy tajribalarini, zamonaviy mezonlar asosida davom ettirish, ijodiy rivojlantirish davr talabidir. Maktabgacha ta'lim muassasalarida tabiatni e'zozlash, ularga ekologik ta'lim-tarbiya berish, ularning murg'ak qalbida, tabiat boyliklariga, mehr-shafqat, rahmdillik singari yuksak ma'naviy axloqiy fazilatlar ustuvorlik qiladigan yosh bolalar, tabiatdagi har bir narsaga oqilona munosabatda bo'ladi.

3. Hozirgi kunda respublikamizning barcha maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab, lisey, kollejlarida uzluksiz ekologik ta'lim-tarbiyani,

ekologik bilim, ko'nikmalarni bolalar qalbiga singdirish va ularda shakllantirish lozim.

4. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ma'naviyatni singdirish va shakllantirishning yana bir yo'li, barcha keng axborot vositalari orqali, aholining barcha yoshu, qari aholisiga ekologik bilimlarni targ'iborni izchil davom ettirish kerak.

5. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya mashg'ulotlarda, tadbirlarda tarbiyachi tamonidan berib borilishi va bunday tadbirlarga ota-onalarni jalb qilishi lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: “O'zbekiston”, 1997.
2. Yoshlar yili Davlat dasturi bo'yicha targ'ibot materiallari. – Samarqand, 2008 yil.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma'naviyat”, 2008 yil. 9-10 betlar.
4. Mirzayev T., G'afurov Z. Tabiatni e'zozlash – umumbashariy muammo. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2001.
5. Xolliyev I. Ikromov A. Ekologiya. O'quv qo'llanma. – T.: “Mehnat”, 2001.
6. Ergashev A. Umumiy ekologiya. – T.: “O'zbekiston”, 2003.
7. Ergashev A., Ergashev T. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. Darslik. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2005.
8. To'xtayev A. Ekologiya. O'quv qo'llanma. – T.: “Tarbiyachi”, 1998.
9. Tursunov X., Raximova U. Ekologiya. O'quv qo'llanma. – T.: “Chinor ENK”. Ekologiya nashriyoti, 2008 yil.
10. Qodirov E. Va boshqalar. Tabiiy muhitni muhofazalashning geoekologik asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: “O'zbekiston”, 1999 yil.
11. Ismoilov A., Bo'riyev H., Ashurova R. Ekologiya tarbiyasi. – Samarqand, 2000.
12. Ziyomammedov B.G'. Ekologiya va ma'naviyat. – T., 2007 yil.
13. “Avesto”. Mangu hikma obidagi. Davra suhbatlari. Guliston jurnali, 1996 yil № 6. 47-bet.
14. Ahmadjonova M. S. “Ekologik xavfsizlikning tashkiliy asoslari”, Ta'lim va texnologiya ilmiy uslubiy maqolalar to'plami I qism. Toshkent – 2013 yil 292 bet.
15. Pedagogika Mavlonova R. va boshq. – T.: O'qituvchi 2001 y, 512 b
16. G'ulomov P. Atrofimizdagi olam. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. T.: Cho'lpon, 2008. 112 b

17. Turdiqulov E. Prezidentimiz Islom Karimov ta'limotida ekologiya muammolari./Xalq ta'limi. 1998, 2-son. 96-103 bet
18. Qosimova S., Shojalilov Sh., Bader O. Atrof-muhitni muhofaza qilish va shahar iqlimshunosligi. – Toshkent, “Istiqlol” nashriyoti, 2005. – 112 bet.
19. Hamdamov I., Bobomurodov Z., Hamdamova E. Ekologiya. – Toshkent, “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2009. – 176 bet.
20. Halilova M. Bolalarda ekologik bilim olishga qiziqishni shakllantirish. Xalq ta'limi jurnali, 2005 yil 1-son. 116-117 bet.
21. Xasanboyev J. To'raqulov X. Alqarov.I. Usmonov N. Pedagogika. Toshkent, “Noshir”, 2011 y 183-188 bet.